

O'ZBEK XALQ OG'ZAKI IJODIDA NON MADHI

BOOKMANY
PRINT
publishing company

ISBN 978-9943-8095-8-1



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGI KAFEDRASI**

O‘ZBEK XALQ OG‘ZAKI IJODIDA NON MADHI



**“BOOKMANY PRINT”
TOSHKENT – 2022**

UO‘K: 398:81(575.1)

KBK: 82(50‘)

E 78

Erkinova, Fotima.

O‘zbek xalq og‘zaki ijodida non madhi [Matn] : to‘plam / F. Erkinova. – Toshkent: Bookmany print, 2022. – 270 b.

Ushbu to‘plamga o‘zbek xalqining aziz ne‘mati non haqidagi o‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalari jamlangan bo‘lib, undan o‘zbek filologiyasi fakulteti talabalari, magistrarlari, umumiy o‘rta ta‘lim maktabi, akademik litsey va kasb-hunar maktablari o‘qituvchi va o‘quvchilari, ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar tashkilotchilari hamda barcha adabiyot ixlosmandlari foydalanishlari mumkin.

To‘plovchi va

nashrga tayyorlovchi: Fotima ERKINOVA,

Namangan davlat universiteti
o‘zbek adabiyotshunosligi kafedrası
1-bosqich magistri

Ilmiy rahbar va

so‘z boshi muallifi:

Komiljon ABDULLAYEV,
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Mas‘ul muharrir:

Mo‘minjon SULAYMONOV,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Taqrizchilar:

Zohidjon SODIQOV,
filologiya fanlari doktori

Ra‘noxon TAJIBAYEVA,

Yangiqo‘rg‘on tuman 6-sonli umumiy o‘rta ta‘lim maktabi oliy toifali ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi,
O‘zbekiston Respublikasi xalq ta‘limi a‘lochisi

Abdulaziz HASANOV,

Yangiqo‘rg‘on tuman 6-sonli umumiy o‘rta ta‘lim maktabi ona tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi

Ushbu to‘plam Namangan davlat universiteti ilmiy-texnikaviy kengashining 2022-yil 10-martdagi 3-sonli yig‘ilish qarori bilan chop etishga tavsiya qilingan.

ISBN 978-9943-8095-8-1

© Erkinova F.
© “Bookmany print” nashriyoti, 2022.

So‘z boshi

Inson dunyoga kelar ekan, hayot deb atalmish ummon qa’riga sho‘ng‘iydi. Bu sarhadsiz ummonda g‘arq bo‘lmay, bir me’yorda suzish uchun yashamoq va harakat qilmoq zarur. Hayotimizda ana shu tiriklik va yashashning bosh manbai bu – aziz ne’mat - rizq-ro‘zimiz – nondir.

Turmushimiz go‘zalligi, yurtimiz obodligi, xalqlarning quvonchi ham dasturxonimizning oliy ne’mati – non bilan. Shuning uchun ham dunyodagi barcha xalqlarning nonga bo‘lgan hurmati, e’tiqodi, an’anasi, qadriyati benihoya ibratli, bardavom hisoblanadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek: “Bizni hamisha o‘ylantirib keladigan yana bir muhim masala bu – yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so‘z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog‘liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasin”.¹

Shuningdek, Yurtboshimiz 2019 yil 6 aprel kuni Surxondaryoda birinchi bor o‘tkazilgan va dunyoning 74 ta davlatidan 160 nafardan ziyod vakillar qatnashgan Xalqaro baxshichilik san’ati festivalida so‘zlagan nutqlarida ham o‘zligimizni chuqurroq anglash, milliy an’ana va qadriyatlarimizni avaylab-asrash masalasiga alohida e’tibor qaratib, uni munosib davom ettirish, boyitishga undadilar: “Baxshilar nafaqat xalq o‘tmishining aks-sadosi, ayni paytda bugungi kunning ham jarangdor ovozidir. Go‘zal yurtimiz hayoti bilan tanishgan siz, azizlar, o‘z fikr va tuyg‘ularingiz haqida, bag‘rikeng va mehmondo‘st xalqimiz, uning madaniyati va betakror qadriyatlari haqida yangi-yangi qo‘shiq va dostonlar yaratishingizga tilakdoshmiz”.²

Darhaqiqat, “tiriklik manbai”, “rizq-ro‘zimiz”, “ne’matlar sultoni”, “dasturxon shohi”, “aziz ne’mat” kabi tasviriy vositalar bilan ifodalangan nonni ulug‘lash bilan bog‘liq milliy an’ana va qadriyatlarimiz (uni peshonaga surish, boshda ko‘tarish, uyning to‘rida asrash, beshik yostig‘i ostida saqlash, safarlarda hamroh qilish, martabali mehmonlarni kutib olishda non-tuz bilan peshvoz chiqish, unashtiruv marosimi ramzi sifatida ulug‘lash kabi) ifodasi bo‘lmish xalq og‘zaki ijodi namunalari – qo‘shiq, maqol, topishmoq, tez aytish, rivoyat, masal, afsona, ertak, olqish, qarg‘ish, kinna, non bilan bog‘liq

¹ Mirziyoyev Sh. Adiblar hiyoboni ochilish marosimida so‘zlagan nutqidan.

² kun. uz / news/ 2019/ 04/ 06/ mirziyoyev-baxshilar-nafaqat-xalq-o‘tmisnining-aks-sadosi-ayni-paytda-bugungi-kunning-ham-jarangdor-ovozidir.

o‘yinlar bilan tanishtirish bugungi kun yoshlarini ma‘naviy barkamol, jismonan baquvvat, sog‘lom; ertangi kunning tayanchi sifatida tarbiyalashning muhim vositalaridan biridir.

Zero, “Adabiyot masalasi – bu ma‘naviyat masalasidir”¹, “Ma‘naviyat insonga ona suti, ota namunasi, ajdodlar o‘giti bilan birga singadi”².

Non madhi bilan bog‘liq 100 tadan ortiq xalq og‘zaki ijodi durdonalarini jamlagan ushbu ilk jajji izlanish Vatanimizning asosiy boyligi, kuch-qudrat hamda tinchlik, do‘stlik ramzi bo‘lgan nonni e‘zozlash lozimligini uqtirish, tabiatning noyob in‘omlariga befarq bo‘lmaslik, ularni ko‘z qorachig‘idek asrashga undashdek ibratli maqsadni ko‘zlaganligi bilan qimmatlidir. Keling, fikrimiz, maqsadimizga hamohang quyidagi rivoyatga quloq tutaylik:

“Solih ismli yigit ikki nonni beliga bog‘lab safarga otlanibdi. Qorni ochgan mahal ulardan bittasini sindirib, yo‘l-yo‘lakay kavshanib boraveribdi. Kutilmaganda jimitday bir uvoq barmoqlari orasidan tushib ketibdi. Solih tuyasini cho‘ktirib, qidirishga unnabdi. Biyday arab sahrosi, oyoq osti qum, haligi ushoq yo‘q. Yigit yetti kun muttasil izlaydi... Topishi shart, topmasa iloji yo‘q. Xudo ko‘rsatmasin non-uvog‘ini shamol uchirib, qayoqqadir oborib tashlashi, qumga ko‘milishi, bilmagan o‘tkinchilar oyoq bosishi mumkin.

Solih qattiq kirishadi: ushoq non tushgan joyning tevaragiga devor ko‘tarib, baland qo‘rg‘on qiladi va izlashda davom etadi. Ittifoqo, Xizr buva shu manzildan o‘tib qoladi. Ko‘rsaki, na suv na bir giyohsiz biyobonda qo‘rg‘on paydo bo‘lib, bir yigit qumlarni titmoqda.

- Hoy birodar, bu ne qo‘rg‘on va ma‘nisini men anglamagan mashg‘ulotingga nima sabab? – so‘rabdi u kishi.

- Ismim Solih, - deb u o‘zini tanishtirdi va bo‘lgan gapni aytib berdi.

Hayratdan kalima o‘g‘irgan Xizr buva shod-u minnatdor bo‘lib duo qiladi: Ushoq nonni shunchalar qadrlabsan, seni Alloh qadrlasin, seni o‘ziga yaqin qilsin. Parvardigor senga shundoq bekam rizq-nasiba bersinki, o‘zidan o‘zga hech bir zotga muhtoj bo‘lmasin...

Rivoyatning boshqa bir talqinini ham eshitdim. Ya‘ni el naql qiladiki, “Nonni bosgan – ko‘r bo‘ladi”. Binobarin, Solihning yana bir xavfi, qayg‘usi ham bor edi, u o‘zgalarning shikastlanmasligini o‘ylardi.

¹ Karimov I. Adabiyotga e‘tibor – ma‘naviyatga, kelajakka e‘tibor. – T.: “O‘zbekiston”, 2009. – 40 b.

² Karimov I. Vatan va xalq mangu qoladi. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010.

O‘sha tevarakni devor bilan ihotalamasa, oqibatda xabarsiz birov ushoq nonni bosib olsa va ko‘zidan ayrilsa!..

Qissadan hissa shuki, Solih yolg‘iz shu amali, ushoq nonni qadrlagani uchun duo oldi, aziz bo‘ldi, saodat topdi. Solih – andoza. Nonga nisbatan buyuk ehtimom vijdon ishiga aylansa qaniydi-ya!”¹

O‘ylaymizki, o‘zbek filologiyasi fakulteti talabalari, magistrari, umumiy o‘rta ta‘lim maktabi, akademik litsey, kasb-hunar maktabi o‘qituvchi va o‘quvchilari, ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar tashkilotchilari hamda keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan ushbu to‘plam ularning eng yaqin ko‘makchisiga aylanadi va kitob javonlarining to‘ridan joy oladi.

Komiljon Abdullayev,
Namangan davlat universiteti o‘zbek
adabiyoshunosligi kafedrasi dotsenti,
pedagogika fanlari nomzodi

¹ Ummatov R. Insoniyatning buyuk kashfiyoti. – “Namangan haqiqati” gazetasi, 2018 yil 18 yanvar, 4-bet.

QO'SHIQLAR

Novvoylar qo'shigi ¹

Yigitlar:

Andiringdan², yangajon,
Mandiringdan, yangajon,
Tandiringdan, yangajon.
Zardevor-u palaging,
Un elagan elaging,
Xamiringni mushtlagan,
Og'rimasin bilaging.

Y a n g a:

Andirimmi, qaynog'a,
Mandirimmi, qaynog'a.
Archa-o'tin qizitgan
Tandirimmi, qaynog'a.



Yigitlar:

Qatlama, patir,
Chappati³, chotir⁴.
Gijdadan⁵ mujda⁶,
Ko'mma-yu qotir.
Pishir, pishir, yangajon,
Pishir, pishir, ko'pgan non!
Undan o'tin, yangajon,
Mundan o'tin, yangajon.
Pushtagini qoldirmay,
Nonni yopgin, yangajon.
Tandiringni tubasi,
Jebalasin jebasi.
Xamiringni ko'tarsin
Singlisi yo opasi.



¹ Shoda-shoda marvarid: O'zbek xalq qo'shiqlari. / To'plovchi: E. Ochilov / – T.: “Sharq”, 2006. B-253.

² Andir-mandir- shevaga xos: Ana u-mana u

³ Chapati-yupqa qotirma non

⁴ chotir-lochira

⁵ Gijda-cheti qalin, doira shaklidagi non

⁶Mujda-xabar

Y a n g a:

Undan o‘ting, qaynog‘a,
Mundan o‘ting, qaynog‘a.

Y a n g a:

Undan o‘ting, qaynog‘a,
Mundan o‘ting, qaynog‘a.
Nonni suvga ivitib,
To‘yib yuting, qaynog‘a.
Qatlama, patir,
Chappati chotir,
Gijdadan mujda,
Ko‘mma-yu qotir.

Non haqida qo‘shiqlar¹

-G‘alvir-g‘alvir!...
-Arg‘amchi, arg‘amchi!..
-Turna, arqon sol!
-Cho‘ntagingga talqon sol.
-Talqoningni yeyaylik,
Tegaversin deyaylik.

* * *

Qani bu ko‘rkam nonni,
Burdalab bo‘lsa agar,
Yer yuzi bolasiga,
Yetardi yesa agar.

* * *

Eski yil ketdi, yangi yil keldi.
Tandirda non tizilsin, sumalaklar suzilsin.

* * *

Bug‘doylar pishib chosh bo‘lsin,
Yeganimiz osh bo‘lsin.
El-yurtimiz bog‘ bo‘lsin,
Rizq-u ro‘zimiz tog‘ bo‘lsin.



¹ Gulguna / To‘plovchi: Ibrohimova Z. / T., Yangi nashr. – 2010, B-124, 138, 249, 254

* * *

Oq kaptarim non yeydi,
Ko'k kaptarim non yeydi.
Kimning esi yo'q bo'lsa,
Qo'lini yuvmay non yeydi.

* * *

Chuchvara qaynaydi-ya,
Qozonda o'ynaydi-ya.
Yumshoq-yumshoq chuchvarani
Aham menga bermaydi-ya.
Bermasa bermasin-a,
Bizning uyga kirmasin-a.
Oshimizdan ichmasin-a.
Chitti gul ho, chitti gul.

* * *

Oftob chiqdi olamga,
Yugurib bordim xolamga.
-Xola,xola kulcha ber!
Xolam dedi:-O'tin ter.
Keyin yugurdim qirga,
O'rtog'im bilan birga.
O'tin terdik bir quchoq,
Bilmadik sira charchoq.
Xolam qordilar xamir,
Kulcha yopdi bir tandır.
Bizga kulcha berdilar,
Peshonamizdan o'pdilar.
Oftob chiqdi olamga-ye!
Yugurib bordim xolamga-ye!

* * *



G'allalar aytishuvi¹

Tariq: -Arpani otingga ber,
Bug'doyni ish, qo'noqni sot.
Saqlasang qirq yil turadi,
Kichkina polvon tariq.

Qo'noq:-Arpani otingga ber,
Bug'doyni ish, qo'noqni sot.
Yeridan chiqmay turib,
Dehqonni kuydirgan tariq.

Bug'doy:-Maqtanaberma, arpa-yu kurmak,
Boshingda o'ynar yetti to'qmoq.



Arpa:-Alhamdulillah, qorni yoriq
Bug'doy emasman.
Tegirmonning bo'yniga tushib,
Qiynoq emasman.

Jo'xori:-Bu so'zlaring ne deb aytding, No'xotoyim!
Bu yerlardan qarolaringni yo'qotayin!

Qo'noq:-Oshdan begonasan,
Qo'noqqa taqdirgan tariq.
Inidan chiqmay turib,
Dehqonni kuydirgan tariq.

Mehnat qo'shiqlari

O'rim qo'shig'i²

O'rog'im olmos,
O'rimdan qolmas,
Sira ham tolmas,
O'rmasam bo'lmas.
G'ujmoqi³ bug'doy,
Donginang to'q-ey,
To'p bo'l o'raylik,
Ho'pda⁴ ko'raylik.

¹ Mirzayev T., Safarov O., O'rayeva D. O'zbek xalq og'zaki ijodi xrestomatiyasi. -T., Aloqachi, 2008, B-15.

² O'sha manba, B-9.

³ G'ujmoqi-boshqoli, donalari g'uj.

⁴ Ho'p-xirmon etib, bug'doy yanchish.

O'rog'im qayqi¹,
Sen meni boy qil.
Ko'taray xirmon,
Sen meni boy qil.
G'ujmoqi bug'doy,
Donginang to'q-ey,
To'p bo'l o'raylik,
Ho'pda ko'raylik.
O'rog'im haqqon²,
Sen menga yoqqan.
Qo'lginam chaqqon,
Mehnatda boqqan.

Yanchiq qo'shig'i³

Xo'p hayda-yo, xo'p hayda,
Qalqon qulog'im hayda,
Temit tuyog'im hayda,
Xirmonni qilgin mayda,
Ostingda bosgan donni,
Oyog'ing qilsin mayda,
Sen po'stidan judo qil,
Somoni senga foyda,
Chu –he, jonivorim, hayda,
Xirmonni qilgin mayda,
Ishni tamom qilmasang,
Joningga tinim qayda,
Men belginangga minib,
Chu-chu deyman silkinib,
Charchab men ham jonivorim,
Boraman ko'zim tinib.
Chu-chu, jonivorim, hayda,
Boshingni yerga solma,
So'zimni og'ir olma,
Ko'zim ilinib ketsa,
Tag'in-a, to'xtab qolma.



¹ Qayqi-bukik.

² Haqqon-ildam, tig'i o'tkir.

³ Mirzayev T., Safarov O., O'rayeva D. O'zbek xalq og'zaki ijodi xrestomatiyasi. T., Alohachi, 2008, B-11.

Chu-he, jonivorim, hayda.
Xirmonni qilgin mayda,
Donni yig'ib olmasak,
Bizlarga tinim qayda.
Chu-he, jonivor, chu-ha, chu
Qamchi yemay duvva-duv,
Yerdan chiqqan ekinning
Tirikligi tiniq suv.

* * *

Mayda-mayda, mayda qil, mayda-yo mayda,
Mayda qilsang unday qil, mayda-yo mayda,
Sochini yuvgan qizday qil, mayda-yo mayda,
Tong shamolga tayyor qil, mayda-yo mayda.
Mayda-mayda morisin, mayda-yo mayda,
Don somondan arisin, mayda-yo mayda,
Ayni sahar bo'lganda, mayda-yo mayda,
Bobodehqon dorisin, mayda-yo mayda.
Somoni senga foyda, mayda-yo mayda,
Bug'doyi menga foyda, mayda-yo mayda.
Bosgan izing tolqon bo'lsin,
Xirmoningga bug'doy to'lsin.
Ha, chu otim, hayda, mayda-yo, mayda,
Somoni senga, bug'doyi menga foyda, mayda-yo mayda.
Katta qirga bug'doy ekdik,
Birga-birga haydab ekdik.
Ha, chu otim, hayda, mayda-mayda,
Somoni senga, bug'doyi menga foyda mayda-yo mayda.
Arpa-bug'doylar somoni,
Katta bo'ladi xirmoni.
Ha, chu otim, hayda, mayda-mayda,
Somoni senga, bug'doyi menga foyda mayda-yo mayda.
O'ralarga bug'doy to'lsin,
Somoni ham mo'l bo'lsin.
Ha, chu otim, hayda, mayda-mayda,
Somoni senga, bug'doyi menga foyda mayda-yo mayda.

Yorg'ichoq qo'shig'i¹

Yorg'ichog'im guldur-guldur,
Bo'g'zing to'la oppoq undir.
Boy boboning hosillari,
Ikkimizga yorug' kundir.

Yorg'ichoq sen yorg'ichoq,
Tishlaring bo'lsin qaqroq.
Bo'g'zing to'lsin hamisha,
Bug'doyim bo'lsin qayroq.

Arpa tortsam, mayin qil,
Tarig'imni qil upa.
Jo'xoringa bo'lg'in zil,
Bug'doyimni o'zing bil.

Boy otamdan olganman,
Chorak arpa donini,
Donim qimmatga tushgan,
Jonim garovga tushgan.

Yorg'ichoqni taq-taqijon deydilar-a,
Tegirmonni rohati jon deydilar-a.
Yorg'ichoqdan terlab chiqqan bandaman-a,
Xojarayhon, bo'yniyog'on deydilar-a.

* * *

Yorg'ichoq yalpoqqina,
Un qilar oppoqqina,
Yorg'ichoq xir-xir etar,
Mushtdekkina xamir etar.

Ikki tosh-u bir sannoch,
Qonimni so'rar yorg'ichoq,
Yorg'ichoq torta –torta toldi qo'lim,
Ikki tosh orasida qoldi qo'lim.

¹ Mirzayev T., Safarov O., O'rayeva D. O'zbek xalq og'zaki ijodi xrestomatiyasi. – T.: Aloqachi, 2008, B-12.

NOKAS NONING QADRIN BILMAS¹

(«Go‘ro‘g‘li» dostonidan)

Nokas noning qadrin bilmas,
Bir kun tashlab qochar seni.
Bo‘riga izzating abas,
Oxir tashlab qochar seni.
Nomardga tushmasin ishing,
G‘amda o‘tar yoz-u qishing,
Oxiri sindirar tishing,
Ko‘zing yoshlab qochar seni.

Yomon yurakni yaralar,
O q yuzga chekar qoralar,
Yurak-bag‘ringni yaralar,
Xoming oshlab qochar seni.
Go‘ro‘g‘li aytur: al-omon,
Munofiqlar yovdin yomon,
Izzating pasaygan zamon,
Chohga boshlab qochar seni.



O‘lan²

Bug‘doy poya deganda, bug‘doy poya
Seni mendan ajratdi ulug‘ qoya
Agar ulug‘ qoyalar qulab tushsa
Boshginangga solaman shunda soya
Qiyο-qiyο nonlarning qirg‘isi bor
Mulla novvoy uyida bir qizi bor
O‘tgan - ketgan yigitning ko‘zi shunda
Manglayida saraton yulduzi bor.

Qoramug‘day samonisi
Qorabug‘doy somoni bo‘l
Yomonning yaxshisi bo‘lmay
Yaxshinig yomoni bo‘l

¹ Shoda-shoda marvarid: O‘zbek xalq qo‘shiqlari. / To‘plovchi: E. Ochilov / – T.: “Sharq”, 2006, B-368.

² Namangan xalq og‘zaki badiiy ijodi. /To‘plovchi va nashrga tayyorlovchilar: G‘oziboyev T., Sobirov. A., / Namangan, 1993, B-38.

Hamisha bog‘ aro yayrab
Omonlarning omoni bo‘l.

O‘lan aytsang bo‘lmaydimi, bunday qilib,
Tegirmondan chiqarilgan unday qilib.
Seni o‘stirgan enangga barakalla,
Yuzing oyday, belingni qilday qilib.
Bug‘doy solma tegirmonning do‘liga,
Nazar solma sen kishining yoriga,
Nazar solsang gar kishining yoriga,
Osilasan sen podshoning doriga.

Hajviy to‘rtliklar¹

Singlim unlar elaydi
Gajagi qimirlaydi
Zolim eri kelganda
Darchani zanjirlaydi

* * *

Shaldur-shuldur taqqan qiz
Mingboshiga yoqqan qiz
Mingboshidan non olib,
Otasini boqqan qiz.

* * *

Tegirmonda unlama
Qovunlarni to‘rlama
Boyning qizini olma
Orqa sochi ulama.

* * *

Tegirmonning ustidan mar-mar ko‘chadi
Qaddimni buklasam belim sanchadi
Chiqonlarim ko‘zlarimdan uchadi
Xonavayron bo‘lsin Xivaning xoni
Xonga patir kerak, bizga-chi noni
Yo iloyim, qarg‘ishimiz tutgay oni
El qarg‘ishi xonimizga kor qilmasa
Bizlarga ham Xudo bersin bug‘doy nonni



¹ Mirzayev T., Safarov O., O‘rayeva D. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi xrestomatiyasi. T., Aloqachi, 2008, B-145.



Non yopganda mening oyim, shirin kulcha yopar doim...

* * *

Isfandiyor zolimliging bildirding,
Non o‘rniga kunjarani yedirding.
Kambag‘alni qiynab, boyni kuldirding,
Haddan oshding zolim! Yoning so‘kilsin!
Boshing kesilsin-u, qoning to‘kilsin.

Yumoristik to‘rtliklar¹

Tegirmon-u, tegirmon
Tevaragi temirdan.
Ishdan qochgan opamning
Labini sichqon kemirgan.

* * *


Uyda yotar dangasa
Nonin sotar dangasa
Mehnat qilmay nonini
Qanday topar dangasa?

* * *

Ariq bo‘yida kosa
O‘ltiradi dangasa
Unga tekin non bo‘lsa
Dasturxonda son bo‘lsa
Yigit xalqi xushro‘y bo‘lar
Qizil yuzida xoli bo‘lsa
Choponlarga guduk bo‘lar
To‘rvasida noni bo‘lsa

Zog‘ora²

Zog‘orani yopsam alim pishadi,
Qo‘lima olganim oqib tushadi,
Yeganimda tomoqlarim shishadi,
Qaytib kelmasin endi zog‘ora.
Shunday zamonlar ham aylanib o‘tdi,
Zog‘ora, kurtuklar yo‘qolib ketdi,
Endi baxtli zamon bizlarga yetdi,
Qaytib kelmasin endi zog‘ora.



¹ Mirzayev T., Safarov O., O‘rayeva D. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi xrestomatiyasi. T., Aloqachi, 2008, B-155.

² O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. / Madayev O.; mas‘ul muharrir Boltaboyev H.; O‘zR Oliy va o‘rta maxsus vazirligi, Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti. –T.; MUMTOZ SO‘Z, 2010, B-121.

Amirning o'lonchilariga qarshi...¹

Bu zolimning dastidan ekmagin mulki xiroj,
Uch yarim botmon bitibdi, xirmonim uch orqa poch.
Moliyat ber deb kelar, qo'lida katta sanoch,
Moliyatni bermasang, boshga tegar irg'ay yog'och,
Qo'sh ho'kizni ber sotib, sabil qolsin poza, omoch,
Bundayin dehqonchilikdan cho'lga bor, yeb yur ko'moch.

Marosim qo'shiqlari²

Yor – yor

Qat-qatgina qatlamalar qatlanadi, yor – yor,
Qizni olib yangalari otlanadi. yor – yor.
Qizni olib yangalari tura tursin, yor – yor,
Noni halol otalari rozi bo'lsin, yor – yor.

* * *

Tandir – tandir non yopib tolding onam, yor – yor.
Endi ketib boraman qolding onam, yor – yor.
Osmondagi to'rg'ayni otgan otam, yor – yor,
O'z qizini tanimay sotgan otam, yor – yor.
O'z qizini o'rniga bug'doy eksin, yor – yor,
Bug'g'doy pishib qayrilsa, qizin kutsin, yor – yor.

Kelin salom

Qo'sh ho'kizin yuritgan, o'rada bug'doy chiritgan,
O'rigini kampirlar jovli olib quritgan qayin otasiga salom.
Oq bug'doyning patiri o'rgimchakning chatiri,
Suv kechgani eringan, o'g'il tug'ib kerilgan qayin onasiga salom.

¹ Mirzayev T., Safarov O., O'rayeva D. O'zbek xalq og'zaki ijodi xrestomatiyasi. T., Aloqachi, 2008, B-175.

² O'sha manba. B-175.

TOPISHMOQLAR¹

Hamma yog‘i qiltiq, hamma unga intiq.
(bug‘doy)

O‘zi oriq, rangi sariq. Yuzi qizil, boshi qiltiq.
(bug‘doy)

Qizilini o‘zim yedim, sarig‘ini molga berdim.
(bug‘doy)

Dik-dik etar buti yo‘q, o‘tiray desa o‘rni yo‘q.
Arig‘i bor-u suvi yo‘q.²
(bug‘doy)

Birin yerga tiqdim, bir hovuch bo‘lib chiqdi.
(bug‘doy)

Qo‘ynidagi qator- qator oltinlar,
Jon egasin uzluksiz to‘ydirar.
Men aytaman — bu narsalar kimda bor,
Javobini bering, buni kim topar?
(bug‘doy)

Bo‘yi bir qarich, soqoli ikki qarich,
(makkajo‘xori)

O‘zi ichkarida, soqoli tashqarida.
(makkajo‘xori)

Ko‘k ko‘ylakli xotin, sariq bola ko‘targan.³
(makkajo‘xori)

Xipchabel, zarrin soqol, tishlari zich dur misol.
(makkajo‘xori)



¹ Shirinboyev Sh. Non. -Toshkent; O‘qituvchi, 1992. B-29-35.

² Jalilova J., Shonazarov R. Nonga hurmat- elga hurmat. -Toshkent: O‘qituvchi, 1988. B-103.

³ Bolalar uchun topishmoqlar [matn]: topishmoqlar / to‘plab, nashrga tayyorlovchi: Avvalboyeva I.-Toshkent. Yurist- media markazi, 2019.

O'sar ko'kka bo'y cho'zib, qulochday bargin yozib.
Yo'rgaklangan malikam, tilla sochi bir tutam.

(makkajo'xori)

Qancha – qancha dardlarim ichimda qolib ketdi,
Kombayn yovuz ekan, boshimni olib ketdi.

(boshoq)

Bir qo'yim bor, turib semirar (xamir)

Yumalatsam joni yo'q, bo'g'izlasam — qoni yo'q.

(xamir)

Mushtlab-mushtlab urarlar, muncha gunoh qilibman.

O'tga solib yoqarlar, muncha osiy bo'libman.

Muncha meni xo'rlarlar, bilmam, nima qilibman.

Muncha meni sevarlar, qanday shirin bo'libman.

(non)

Xom soldim, pishiq oldim.

(non)

Ho'l otdim, quruq chiqdi.

(non)

Oq otdim, qizil oldim.

(non)



Dasturxonni bezab, doim, Darmon bo'lar yosh-qariga.

(non)

Osti jahannam, usti jahannam.

Ichida o'tirar g'aribgina momom.

(tandirdagi non)

O'zi yumshoq mazali, sedanali, jizzali,
Xushbo'y hidi taralar, bozorlarda sotilar.

(non)

Quyosh aksi bor, nurlar raqsi bor.

Dasturxon fayzi, ko'pning rizqi bor.

(non)

Tog‘orada shishadi, tandirda u pishadi.
(non)

Sovuq kirib, issiq chiqar.
(non)

Qor emas u, qorday oq, uyingda bor, ko‘rib boq.
(un)

Pakana xotin loy tepar.
(chekich)

Tap-tap etar, tagidan karvon o‘tar.
(elak)

Qorong‘i uyda qoplon g‘uldiraydi.
(tegirmon)

Tuzsiz unli oshni ko‘rdim,
Yumalab yotgan toshni ko‘rdim.
(sumalak)

Kichkina kelinchak tom tepar.
(chekich)

Matalim matti, qulog‘i qatti.
Qozonga solsan, tikrayib yotdi.
(chuchvara)

Zar gilam, zar-zar gilam, ko‘taray desam, og‘ir gilam.
(yer)

Bir palosim bor, hech yig‘olmayman.
(yer)

Hammani to‘ydiraman, o‘zim yemayman.
(yer)

Yedirib, yedirib, to‘ydirganin o‘zi yer.
(yer)

Qishda yaxlamaydi, yozda yaxlaydi.
(sho‘r yer)



Bug‘doyzorda yuradi, o‘roq emas o‘radi
Bolg‘asi yo‘g‘-u yanchir, don yig‘ar ancha – ancha.
O‘zi misli kemadir, ayting-chi u nimadir?
(kombayn)

O‘radi o‘rog‘i yo‘q, yig‘adi tirnog‘i yo‘q.
Don to‘playdi qop-qop, Yanchadi to‘qmog‘i yo‘q.
(kombayn)

Kecha-kunduz tinmayin, g‘ir-g‘ir etib yuradi.
O‘zi tilla donni yeb, bizga oq un beradi.
(tegirmon)

Bitta yuzi, mingta ko‘zi.
(elak)

Pastgina tog‘dan qor yog‘ar.
(elak)



Topmachamning o‘zi qora, topmaganning yuzi qora.
(qozon)

Qora tovuq qorni to‘q.
(qozon)

Chor quloq chandir quloq, chor qulog‘i shalpang quloq.
(qozon)

Tez aytishlar¹

Nortoy novvoy non yopar,
Nonni novvot deb sotar.
* * *

Nodirning noni mazalimi?
Nodimning noni mazalimi?
* * *

Non – novvoyning ne‘mati.
* * *

Unsun unni elab tursin.

¹ Bolalar uchun tez aytishlar [matn]: tez aytishlar / to‘plab, nashrga tayyorlovchi: Avvalboyeva I.-
Toshkent. Yurist- media markazi, 2019.



Nonsiz yashab bo'lmas, gapni oshab bo'lmas.

O‘ZBEK XALQ MAQOLLARI¹

Arpa ekkan arpa olar, bug‘doy ekkan bug‘doy olar,

* * *

Arpa ekib, bug‘doy kutma.

* * *

Atala bo‘lsa ham to‘y bo‘lsin.

* * *

Arpaning doni bo‘guncha, bug‘doyning somoni bo‘l.

* * *

Beli ogrimaganning non yeyishini ko‘r.

* * *

Bir bo‘lak nonsiz hashamatli uy ham g‘am-g‘ussa makoni,
Non bo‘lsa, daraxt osti ham jannat makoni.²

* * *

Bir to‘yib non yeganim, yarim boy bo‘lganim.

* * *

Birovning yog‘li nonidan, o‘zingning zog‘orang yaxshi.

* * *

Birovning noni qorning og‘ritar.

* * *

Bolali ona nonga to‘ymas, bolali g‘oz — donga.

* * *

Bor, bor — ishga bor, ishlamagan — nonga zor.

* * *

Borning bolasi mol deb turar,
Yo‘qning bolasi non deb turar.

* * *

Boy ko‘zi xonda, g‘arib ko‘zi nonda.

* * *

Boyning jon bergani bilinmas, g‘aribning — non bergani.³

* * *

Bug‘doy noning bo‘lmasin, bug‘doy so‘zing bo‘lsin.

* * *

¹ O‘zbek xalq maqollari. [Matn] / Tuzuvchi va nashrga tayyorlovchi: A. Fathullayeva / - T.: - "O‘zbekiston" NMIU, 2018.

² O‘zbek xalq maqollari. / Tuzuvchilar: T. Mirzayev, A. Musaqov, B. Sarimsoqov; Mas‘ul muharrir: Sh. Turdimov. - -: "Sharq", 2016.

³ O‘zbek xalq maqollari. // To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi: Imomov K.// Toshkent: G. Gulom, 1989.

Dehqon emas — ketmon chopib non bermas,
Oshiq emas — ishq yo‘lida jon bermas.

* * *

Don ko‘p bo‘lsa, el-yurt ma‘murlikda yashaydi.

* * *

Dunyoda non isidan ham yoqimliroq is yo‘q, dehqon mehnatidan ortiqroq mehnat.

* * *

El qadrini tug‘ishgan bilar, non qadrini yetishtirgan.

* * *

Gado non topsa, to‘rva topmas.

* * *

Har narsaga g‘am yema, parcha nonni kam dema.

* * *

Har supraning noni boshqa.

* * *

Hunar bo‘lsa qo‘lingda, non topilar yo‘lingda.

* * *

Hunari yo‘q- non gadoyi.

* * *

Hunarmandning noni butun.

* * *

Hunarni o‘rganib qo‘ysang, sendan osh-non tilamas.

* * *

Har narsaga g‘am yema, parcha nonni kam dema.

* * *

Ikki sichqon urishdi, bizga noni tushdi.

* * *

Isrof qilsang nonni — yo‘qotasan iymonni!

* * *

Jon boshqa, jig‘ildon boshqa.

* * *

Mardning noni butun.

* * *

Mehnat bilan topilgan non — boldan shirin.

* * *

Mehnatim noni — sog‘ligim koni.

* * *

Molsiz uy bor, nonsiz uy yo‘q.



* * *

Nomi yo‘qqa son tegdi,
Sonda yo‘qqa non tegdi.

* * *

Non — avliyo, osh — mashoyix.

* * *

Non — davlat. Oltin, kumush — metall, javdar va bug‘doy — hayot.

* * *

Non qadrini och bilar, kiyim qadrini — yalang‘och.

* * *

Non uvog‘i ko‘p aziz, uni ko‘zga surtamiz.

* * *

Non ham non, ushog‘i ham non.

* * *

Non — hamma ne‘matlarning sultoni.

* * *

Non har bir xonadonning qut-barakasi.

* * *

Non — novvoyda, kaliti — osmonda.

* * *

Non tiqilsa, suvga chop. Suv tiqilsa, go‘rga chop.

* * *

Non qadrini, novvoy bilar, yer qadrini dehqon.

* * *

Non yemasning ishiga boq.

* * *

Non hidi — jon ozig‘i.

* * *

Nonni qilsang xor — so‘ng bo‘lasan zor.

* * *

Non yemoqchi bo‘lsang, o‘tin tashishdan erinma.

* * *

Nonxo‘r bo‘lma — ochlikdan o‘lasan,

Nonko‘r bo‘lma — ko‘zdan qolasan.

* * *

Nonli bo‘ldim, nomli bo‘ldim.

* * *

Nonning- nomi ulug‘, nomidan ham o‘zi ulug‘.



* * *

Nonni ko‘z qorachig‘idek saqla, dehqonning mehnatini oqla.

* * *

Nonni katta tishlasang ham, gapni katta gapirma.

* * *

Nonga e‘tibor — elga e‘tibor.

* * *

Nonli dasturxon — davlat-u taxt, nonsiz dasturxon esa g‘am-u qabohat.

* * *

Nonsiz ovqat yoqimli bo‘lmas, safar vaqtida non yuk bo‘lmas.

* * *

Nonsiz ziyofat — kambag‘allikdan nishona.

Nonsiz yashab bo‘lmas, gapni oshab bo‘lmas.

* * *

Oltmishga kirgan otadan osh-non so‘rama.

* * *

Omborda donning mo‘lligi — uyda baxting borligi.

* * *

Otasini og‘ritgan el ichida xor bo‘lar,
Onasini og‘ritgan parcha nonga zor bo‘lar.

* * *

Ochlikda yegan nonning to‘qlikda ham mazasi ketmaydi.

* * *

Och tovuqning tushiga don kiradi, Och dehqonning tushiga non kiradi.

* * *

Ochning ko‘zi — nonda, to‘qning ko‘zi —tomda.

* * *

Och qo‘ynida non turmas.

* * *

Ovchi non qidirar, konchi — kon.

* * *

Oshni ayasang — oshga, nonni ayasang — nonga.

* * *

Paxta-oltin, don-hayot.

* * *

Paxta — oltindan qimmat, nonday aziz.

* * *



Patirdan qil chiqmas, baxildan pul chiqmas.

* * *

Qancha izlasang ham nondan yaxshi narsa o'ylab topa olmaysan.

* * *

Qo'ynida noni borning qorni to'q.

* * *

Sovut kiyim jang-jadalda jon berar,
Ketmon urgan kecha-kunduz non berar.

* * *

Suprasida uni yo'q,
Tom boshida qo'sh tandir.

* * *

Tekin tomoq tekin non axtarar.

* * *

Uni bor – usta xotin,
Yog'i bor – yo'rg'a xotin.

* * *

Uyida bir osh uni yo'q,
Itining oti – Marjongul.

* * *

Ushoqqa ushoq deb qarama, ushoqsiz — non butun bo'lmaydi.

* * *

Xasidan non tilaguncha, Xudodan o'lim tila.

* * *

Yaxshi niyat — butun non.

* * *

Yarim non — rohati jon, butun non — ofati jon.

* * *

Yer qadrini bilmagan — non qadrini bilmas.

* * *

Yozni qo'yib qish dema, qishga yarasha ishing bor,
Qotgan ekan non dema, og'zing to'la tishing bor!

* * *


Yovga noningni bersang ham, siringni berma.

* * *

Zahmat chekmagan kishi, nonning qadrini bilmaydi.

* * *

Zog'ora non ham qand bo'lar.



* * *

O‘zgani bug‘doy bilsang,
O‘zingni somon bil.

* * *

G‘am yeguncha, non ye!

* * *

Choy benon — tig‘i parron.

* * *

Nonni uvatma, qadrini otma.

* * *

Non – iymon, iymon – vijdon.

* * *

Non berganni qorniga tep.

* * *

Non yopgan kuyganini yer, yopmagan suyganini.

* * *

Musofirning noni shirin, azobi yashirin.





Nonni birga yeyish – mazali, ishni birga qilish xursandchilik.

DUNYO XALQLARINING NONGA OID MAQOLLARI¹

Abxaz maqoli

Boyning ko‘zi nonda, kambag‘alniki – iymonda.

* * *

Adigey maqoli

Agar qorin to‘q bo‘lsa, non ham singib pishmaydi.

* * *

Nonni birga yeyish – mazali, ishni birga qilish xursandchilik.

* * *

Afg‘on maqoli

Qorni ochga qoplon terisi ham kulchadek ko‘rinadi.

* * *

Och odamning tushiga ham non kiradi.

* * *

Alban maqoli

Nonsiz, tuzsiz hech kim ovqatlanmaydi.

Non bo‘lsa kifoya, dasturxon shart emas.

* * *

Bolgar maqoli

Katta non istasang, katta tandir ol.

* * *

Boshqird maqoli

Qorin nonsiz nonsiz kun kechira olmaydi.

* * *

Daniya maqoli²

Hali pechdan olinmagan nonni maqtama.

* * *

Kambag‘al non istaydi, boy esa – ishtaha.

* * *

Eron maqoli

Nonni tandir qizig‘ida yopiladi.

Non va suv – sog‘lom taom.

Non va suv bor yerdan yaxshi joy topolmaysan.

¹ Eng qadimgi hikmatlar. [Matn] / Tuzuvchi: A. Rahimov, N. Rahimova / - T.: O‘zbekiston. 2018.

² Dunyo xalqlar maqollari. //To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi: Fathullayeva A.// Toshkent: O‘zbekiston., 2018. - B-120.

* * *

Eston maqoli

Tuzsiz va nonsiz taom – yarim ovqat.

* * *

Eveng maqoli

Ishlamasang, non yemaysan.

* * *

Falastin maqoli¹

Agar kishining bugun yeydigan noni bor bo‘lib, ertaga nima yeyman deb g‘amga botsa, demak, iymoni ojiz.

Fin maqoli

Baxtsiz bir yil yashash mumkin, nonsiz esa yashab bo‘lmaydi.

* * *

Badavlat etikdo‘z va kambag‘al tegirmonchini hali uchratishmagan.

* * *

Ocharchilik yilida oltin yombisidan burda non yaxshi.

* * *

Boshoq terib boy, mehmon kutib kambag‘al bo‘lmaysan.

* * *

Fors maqoli

Bug‘doydan – bug‘doy, arpadan – arpa.

* * *

Fransuz maqoli

Xudoyim un yuborsa, shayton qopni olib qo‘yadi.

* * *

Grek maqoli

Xamir qorishni istamaydigan xotin unni besh kun elarkan.

* * *

Golland maqoli

Bir kishining o‘limi boshqa odam uchun nondir.

* * *

Ingliz maqoli

Hamma non ham bitta tandirda yopilgan emas.

* * *

Har bir novvoy o‘zining nonini maqtar.

* * *

Kambag‘alni nonga to‘ygani – chala boyigani.

¹ Dunyo xalqlar maqollari. // To‘plovchi va nashrga tayyorlovchilar: Raimov A. va Raimova N. // Toshkent: O‘zbekiston, 2018. - B-172.

* * *

Osh – nonning so‘rog‘i yo‘q,
Qorni ochning qulog‘i yo‘q.

* * *

G‘alvirga suv solib qo‘yar,
G‘alvirga un bosib qo‘yar.

* * *

Chiroyga non botirib yeb bo‘lmas.

* * *

Indoneziya maqoli

Biri yog‘li non yeydi, boshqasiga ushoq tegadi.

* * *

Island maqoli

Non chiroyli bo‘lgani bilan yeyish hammaga nasib etavermas.

* * *

Koreys maqoli

Bug‘doyni uzoq ek, so‘zni qisqa qil.

* * *

Kurd maqoli

Shunday aldaginki, yolg‘oning nonday tatimli bo‘lsin.

* * *

Latish maqoli

Arpa cho‘qiyotgan payt ko‘r tovuq ham baxtiyor.

* * *

Og‘izga tushgan har burdada belning og‘rig‘i bor.

* * *

Tinchlik non beradi, janjal – g‘am.

* * *

Temirchining qo‘li qora, noni oq.

* * *

Qora ish – oq non.

* * *

Litva maqoli

Hamma joyda non sirti bilan.

* * *

Lotin maqoli

Non va pishloq – ikki chekka qizg‘aldoq.

* * *

Moldavan maqoli

Suvi qochgan non bir uyning qornini to‘yg‘azadi va obod qiladi.

* * *

Norveg maqoli

Ushoq ham non.

* * *

Norveg maqoli

Avval non haqida, keyin esa unashirilgan odaming haqida o‘yla.

* * *

Ozarbayjon maqoli

Begonaning palovidan suvi qochgan o‘z noningni yeganing yaxshi.

Non – otang, suv – onang.

Non hamma yerda aziz: bizda ham, narigi qirg‘oqda ham.

Non taomlar oqsoqoli.

* * *

Ossuriya maqoli

Bechora kishining nonini it ham tortib oladi.

* * *

Noni bo‘lganida tuzi, tuzi bo‘lganida noni yo‘q.

* * *

Portugal maqoli

Non bo‘lmagan xonadonda hamma urishadi va hech kim haq emas.

* * *

Pushtun maqoli

Un bir hovuch, o‘choq esa yigirmata.

* * *

Rutul maqoli

Qorni ochning qo‘ynida non qolmaydi.

* * *

Rus maqoli

Ishlab topilgan bir tilim yaproq o‘g‘irlangan dumaloq nondan yaxshi.

* * *

Mayib – majruh har inson,

O‘z og‘ziga tutar non.



Nonda quyosh aksi bor

* * *

Turkman maqoli

Arpa kulchadan non bo‘lmas, omonatdan – to‘n.

* * *

Arpa kulcha o‘tdan qo‘rqmas, qari ayol – erdan.

* * *

Arpa noni bo‘lsa ham tomoqqa bo‘lar malham.

* * *

Arpa undan kulcha bo‘lmas, cho‘ridan beka.

* * *

Arpa uni oppoq, suv tegsa agar ko‘m – ko‘k.

* * *

Arpa-yu bug‘doydan qo‘lim uzildi, umid senga qoldi tariq xirmonim.

* * *

Arpaning doni bo‘lgandan, bug‘doyning somoni bo‘l.

* * *

Ajal yetmay jon chiqmas, baxil boydan non chiqmas.

* * *

Bir zuvala non pishirdim, mehmonni otdan tushirdim.

* * *

Bug‘doy xomi semirtirar, guruch xomi dard keltirar.

* * *

Bug‘doy dehqonga: “Sen meni balchiqqa qorsang, men seni qiltiqqa qoraman”, - dermish.

* * *

Bug‘doy jo‘xoriga: “Men bo‘lmasam qorilishing, qirqqa yetar yorilishing”.

* * *

Bug‘doy uni tuyaning qo‘ltig‘ida ham pishar.

* * *

Bug‘doy: “Besh oyda bir qarich, bir oyda besh qarich o‘sarman”, - dermish.

* * *

Bug‘doy: “Hushyor bo‘lmasang, sarg‘ayganimda sariq ho‘kizingni, qizarganimda qizil ho‘kizingni yersan”, - dermish.

* * *

Bug‘doyi bo‘lmaganning sharoiti bo‘lmas.

* * *

Bug‘doyni Haqdan tila, jo‘xorini go‘ngdan.

* * *

Bir tishlam non qorin to‘ydirmas.

* * *

“Voh – voh” deydigan topilar, non beradigan topilmas.

* * *

Yetilmagan xamir tandirda turmas.

* * *

Jonni bergan Tangri nonni ham berar.

* * *

Jon tugamasa, non tugamas.

* * *

Jafokashning noni shirin, joni qattiq,
Dangasaning joni shirin, noni qattiq.

* * *

Jo‘xorini changga (quruq yerga) sep, bug‘doyni loyga.

* * *

Jo‘jali tovuqda yem bo‘lmas, bolali uyda – non.

* * *

Matosi – tikilmagan, noni – kulchasiz.

* * *

Mehnatning noni shirin, yalqovning – joni.

* * *

Non – tuzdan shayton qochar.

* * *

Non – avliyoday aziz.

* * *

Non – ulug‘dan, suv – kichikdan.

* * *

Nondan tugunsang – suv ich, suvdan tugunsang – yog‘ ich, yog‘dan
tugunsang – kafan bich.

* * *

Nonni tandir qizig‘ida yop.

* * *

Otaning noni - maydonning noni,
O‘g‘ilning noni - zindonning noni.

* * *

Sabrli yigit non topar, sabrsiz yigit yo‘l chopar.

* * *

Saxiy o‘tar noni bilan, shahid o‘tar qoni bilan.

* * *

Tor yerda non yegandan keng yerda tayoq ye.

* * *

To‘lim to‘ldi –ko‘nglim to‘ldi.¹

* * *

Tavakkalchining noni butun, ishi o‘ng,
Yalqovning noni yarim, holi tang.

* * *

Ustaga shogird bo‘lsang, seni yetkazar nonga.

* * *

Faqirning oti non, yuragining quvvati non.

* * *

Choriq ham bir otdir, lekin ichining joni yo‘q,
Chakmon ham bir uydir, lekin ichining noni yo‘q.

* * *

Chaynamasang non ham o‘tmas.

* * *

Cho‘lda suvsizlik dardini tortmagan uyda issiq nonning qadrini bilmas.

* * *

Ekin ekib, chel tortmagan nonning qadrini ne bilsin.

* * *

Erim er bo‘lsa – nonim to‘rda.

* * *

Yalqov yeyayotganda non ham yig‘larmish.

* * *

Yaxshi ayol arpa unidan osh qilar, yomon ayol bug‘doy unin tosh qilar.

* * *

Yaxsh xotin arpa unin kabob qilar, yomon xotib bug‘doy unin xarob
qilar.

* * *

Yaxshi qiz vaqtli turib taroq so‘rar, yomon qiz vaqtli turib – non.

* * *

Yaxshi joningga yo‘ldosh, yomon – noningga.

* * *

O‘g‘il tug‘dir, qiz tug‘dir, xamiringni o‘zing qor.

* * *

Qizga chimdim (chimdilash) turtki, xamirga – musht.

¹ To‘lim- tegirmonning don quyadigan chuqurchasi.

* * *

Qiz – uyning to‘rvasi, ona – unning urvog‘i.

* * *

Quruq nondan ich og‘rimas.

* * *

Qashshoq g‘alla topmas, g‘alla topsa – qop.

* * *

Har nonning o‘z ta‘mi bor.

* * *

Har kimsaga non berma, o‘zing ham har kimning nonini yema.

* * *

Udmurt maqoli

Kim ishsiz bo‘lsa – nonsiz hamdir.

* * *

Ukrain maqoli

Nonsiz holda suvning yonida ham yashash qiyin.

* * *

Tegirmon sira yuvinmasada, hamma yog‘i oq.

* * *

Uyg‘ur maqoli

O‘zga yurtda palov yegandan o‘z uyingda zog‘ora non kavshaganing yaxshi.

* * *

Vyetnam maqoli

Bir yil uy quradi, uch yil nonsiz o‘tiradi.

* * *

Bir piyola bug‘doy olish uchun, bir piyola ter to‘kish kerak.

* * *

Erga tegishdan avval non yopishni o‘rgan.

* * *

Qalmoq maqoli

Qo‘llar ishlar ekan, demak, og‘iz nonga to‘la.


* * *

Chuvash maqoli

Besh kishilab yanchish, pirogni esa ikki kishilab yeyish yaxshi.

* * *

Ko‘r tovuqqa qipiq ham bug‘doy bo‘lib ko‘rinadi.



Bolam, bug‘doy: “Hushyor bo‘lmasang, sarg‘ayganimda sariq ho‘kizingni, qizarganimda qizil ho‘kizingni yersan”, - dermish.

Shved maqoli

Bitta pirogni ikki marta yemaysan.

* * *

Ko‘r tovuq ham bug‘doy topar.

AYRIM MAQOLLARNING IZOHI¹

“Arpa ekkan arpa olar, bug‘doy ekkan bug‘doy” maqolining kelib chiqishi bilan bog‘liq bo‘lgan hikoyani XIII asrda Nosiriddin Burhoniddin o‘g‘li Rabg‘uziy o‘zining “Qissasi Rabg‘uziy, XVI asrda Abdulvahobxo‘ja o‘g‘li Poshshaxo‘ja o‘zining “Miftoh ul-adl” asarida keltirgan. “Luqmoni hakim avval bir qul erdi. Xojasi bir kun aydi: Ey, Luqmon, falon yerga borib arpa ekkil, falon yerga borib bug‘doy ekkil, dedi. Luqmon ersa arpa ekkil degan joyga bug‘doy ekti, bug‘doy ekkil degan joyga arpa ekti. Qachonkim ekin tamom bo‘ldi, ersa Luqmonning xojasi keldi va ko‘rdikim, arpa yerida bug‘doy, bug‘doy yerida arpa ekilmish. Xojasi aydi: “Nechun mundoq qilding”. Luqmon aydi: “Men gumon qildimkim, arpa yerinda bug‘doy bitar, bug‘doy yerinda arpa bitar, deb andoq qilib erdim”. Taqi Luqmon aydi: “Ey xoja, nechukkim yozuq o‘rnida savob bitar, savob o‘rnida yozuq bitar?! Tun-u kun zulm qilursan, taqi qiyomatda savob umid etarsan. Xojasi bu so‘zni eshitti, ersa bir oh urdi, jami etgan gunohlaridan tavba va istig‘for qildi, taqi Luqmonni ozod qildi. Emdi bilmoq kerakki, har kim dunyoda nima eksa, oni o‘rar. Variantlari: “Nima eksang, shu ko‘karar”, “Yaxshi ekkan, esonlik olar”, “Tikandan tariq unmas”, “Tosh qo‘ygan tosh oladi, G‘isht quygan – g‘isht”.

* * *

“Non- asli don” maqolining “Non ham non, ushog‘i ham non”, “Non bolasi- non ushoq”, “Non qon bo‘lsa, qon- jon”, “Non imondan aziz”, “Non hidida hayot bor, har mag‘zida mamot bor”, “Non bo‘lsa bas, o‘zgasi havas”, “Non bo‘lsa, chaynashga tish topilar”, “Nonsiz yashab bo‘lmas, gapni oshab bo‘lmas”, “Nonni uvatma, qadrini otma”,

¹ Hikmatnoma: O‘zbek maqollarining izohli lug‘ati. – T.: O‘zbek Sovet ensiklopediyasi Bosh redaksiyasi, 1990. – 528 b.

Nonga hurmat- elga hurmat” kabi variantlari bor. Maqolning mazmuni shuki, xalqimiz nonni azaldan hurmat qiladi, har narsadan aziz, afzal va muqaddas deb biladi. Otabobolardan qolib kelayotgan udum, an’anaga binoan, hatto nonni dasturxonga teskari qo‘ymaydilar, nonning ustidan hatlab o‘tmaydilar, uning ustiga boshqa narsalarni qo‘ymaydilar. Agar non qo‘ldan tushib ketsa, darhol olib uch marta o‘pib, ko‘zlariga suradilar. Non ushoqni dasturxon ustida ko‘rsalar barmoqni ho‘llab, ushoq ustiga bosib olib, yeb qo‘yadilar. Yuqoridagi maqollar nonni e’zozlash, xor qilmaslik, isrof etmaslikka undab aytiladi.



* * *

“Nonning ikki kunligini ye, go’shtning bir kunligini” maqoli xalqning tibbiy qarashlari natijasida yuzaga kelgan. Nonni ko‘p yeyish kishining sihat-salomatligi uchun ko‘pda ziyon yetkazmaydi, ammo go’shtni me’yoridan ortiq yeyish ziyon, umrni qisqartirib, qarilikka sababchi bo‘ladi. Ma’lumotlarga ko‘ra, uzoq umr ko‘radiganlarning aksariyati, umuman, go’sht yemas ekan yoki juda ham oz miqdorda iste’mol qilar ekanlar.

“Nonni katta tishlasang ham, gapni katta gapirma” maqolining “Ulug‘ so‘zlama, ulug‘ parcha non yersan”, degan variant ham bor. Bu maqollar bilan: “Undoq qilaman, bundoq qilaman”-deb maqtanib, katta gapirma. Bordi-yu shunday qilishga qurbing yetmasa, chog‘ing kelmasa, imkoning bo‘lmay qolsa, odamlar orasida qizarib, hijolat tortib, sharmanda bo‘lasan. Aksincha, katta gapirmay, maqtanmay, o‘zingni qancha kamtar tutsang, shuncha obro‘-e’tiborga sazovor bo‘lasan”, degan ma’noda nasihat qiladilar.

* * *

“Nonko‘rga bergan essiz oshim, bevafoqa to‘kkan essiz yoshim” maqolidagi nonko‘r- birovning bergan non-tuzini qadrini bilmaydigan, yaxshilikka yomonlik qiladigan, “tuzini ichib, tuzlig‘iga tupiradigan”, ko‘rnamak, nontepki odam. Bevafo-ahdni buzuvchi, sadoqatsiz odam. Maqolda: “Bu har ikki toifadagi odamga ham

yaxshilik qilish, u haqida qayg‘urishning foydasi ham yo‘q. Chunki bunday odam, baribir, yaxshilikni bilmaydi”, demoqchi bo‘linadi. Bu maqolning “Yaxshilikni ham bilganga qil” variant ham bor.

* * *

“Non tiqilsa, suvga bor- suv tiqilsa, go‘rga bor” maqoli “Nonga to‘yilsang, suv ich- suvga to‘yilsang kafan bich” maqoliga to‘g‘ri keladi. Kishining tomog‘iga non tiqilib qolsa, buning xavfli yeri yo‘q- suv ichib yuborilsa, o‘tib ketadi. Ammo tomoqqa suv tiqilib qolguday bo‘lsa, kishini o‘lmoqdan beri qiladi. Maqolda shu hol ifoda etilgan.

* * *


“Bug‘doy bo‘lsa, o‘lchov topiladi”. Ilgari dehqonlar yoki xonadonlar bir-birlaridan don qarz olsalar, taroziga solib emas, o‘zlariga belgili bir o‘lchov idishlari bilan o‘lchab berar va shu bilan o‘lchab olar edilar. Mazkur maqol: “Har bir narsaning qiyini bo‘lsa, osoni o‘z- o‘zidan bitib ketadi”,- degan ma’noda aytiladi.

“Bug‘doy eksang, kuzda ek- yaxshi haydab, bo‘zda ek” maqoli “Yer haydasang, kuz hayda, kuz haydamasang, yuz hayda” maqoli bilan hamohangdir. Bu bilan: “Kuzda bo‘z yerga ekilgan bug‘doydan barakali xirmon ko‘tarish mumkin”,- deb tavsiya qilganlar.

* * *

“Har surpaning noni boshqa” maqolining “Har gulning hidi boshqa”, “Har gulning o‘z isi bor, har elning o‘z tusi bor” kabi variantlari uchraydi.

Bular bilan: “Olamda har bir narsa va kimsaning o‘ziga xos, boshqalardan ozmi ko‘pmi farq qiluvchi yaxshi va yomon xususiyati, fazilati bo‘ladi”, - degan fikrni bildiriladi.



* * *

“Bir boshog- bir savat non” maqolining mazmuni: Donning biror boshog‘ini ham yerda qoldirma, nobud qilma. Bir boshog donni eksang, bir savat non bo‘ladigan bug‘doy olasan. Umuman bu maqol bilan hamma sohada tejamkorlikka undaydilar.

* * *

“Novvoy o‘lsa, qo‘ynidan non chiqar” maqoli bilan o‘ziga kamoli ziqnaligidan tayyor nonini yemay, shuni ham sotib, pul qila qolsam deb yurib, ochidan o‘lib ketadi,- degan ma’noda mubolag‘a qilingan va shunday tabiatli kishilarga nisbatan kinoya tarzida qo‘llaniladi.

* * *


“Oshning sochig‘i – non”. Odatda palovni yeb bo‘lgach, tovoqning tagida qolgan yog‘ni bir burda nonga surkab olib yeydilar, toki isrof bo‘lmasligi uchun. Qo‘lning yog‘ini sochiq bilan artadilar. Og‘iz bo‘shlig‘idagi yog‘ni ketkazmoq uchun esa, bir tishlam noni chaynab, yeb yuboradilar. Buni “sunnat”- deb ataydilar. Maqolda shu hol ifoda etilgan va isrof qilmaslikka da’vat qilingan.

* * *

“Beli og‘rimaganning non yeyishiga qara” maqoli o‘zi mehnat qilmay o‘zgalar mehnatiga kelgan narsalardan foydalanuvchi, ularning qadriga yetmay pala-partish sarflab yuboruvchi tekinxo‘r odamlarga qarata aytiladi. O‘tmishda otasidan qolgan merosni huda-behudaga g‘arra-sharra sarflab, aysh-u ishrat qiluvchilarga nisbatan ham qo‘llaganlar.

* * *

“Yaxshi niyat – butun non” maqolida ota –bobolar kishiga turmush kechirish yuzasidan pand-nasihat qilar ekanlar, hayotda umidsizlanmaslik, ruhini tetik tutib ko‘ngilga yaxshi niyatlarni jo qilgan holda kelajak sari dadil borish zarurligini uqtiradilar. Bu maqolning “Yaxshi niyat –yarim mol”, “Yaxshi nafas-yarim davlat”, “Niyating-yo‘ldoshing”, “Bugungi variantlari bor.



niyat-ertangi haqiqat” singari

* * *

“Ikki sichqon urishdi, bizga noni tushdi” maqolini “Ikki shunqor urishsa, bir qarg‘aga yem tushar” shaklida ham qo‘llanadi. Buning to‘g‘ri ma‘nosi ikki sichqon urishsa, og‘zidagi doni yerga tushadi-da, boshqasiga nasib qiladi. Majozan; ig‘vogar, mutaham odam o‘z kuchi yetmaydigan ikki odamning o‘rtasiga nifoq solib, urishtirib, o‘zlari bilan o‘zlarini ovora qilib qo‘yadi-da, shundan manfaatlanib qoladi, deyilmoqchi.

* * *

“Tekin tomoq tekin non axtarar”. Bu maqolda erinchoq, dangasa odam ishlamay, kuchlamay, mablag‘ topmay, birovdan tilanib, ta‘magir bo‘lib kezi kelsa odamlarning nafratiga uchrab, yomon otliqqa chiqadi. Doimo bir nima so‘rashga o‘rganib qolgan, og‘zidan biror so‘z chiqadigan bo‘lsa, “Obbo, yana tilanayapti-ya”-deb o‘ylab, uning so‘zini eshitgilari ham kelmay, ensalari qotadi,-deyilmoqchi. Bundan tashqari, “Ishlagan – tishlaydi, tishlamagan-boshini qashlaydi”, “Ishlagan- tishlaydi, ishlamagan-kishnaydi”, “Ishlik–ish kovlar, ishsiz-tishkovlar” kabi maqollar ham bor.

* * *

“Bor, bor, ishga bor, ishlamagan nonga zor” maqolida “Ishlamagan odam muhtojlik balosiga yo‘liqib, nima duch kelsa, shuni yeyishga majbur bo‘ladi”-degan fikr ilgari suriladi “Mehnat bilan topilgan non –boldan shirin”. Insoniyat bosib o‘tgan uzundan-uzoq yo‘l mehnat jarayonidan iboratdir. Inson o‘zining jamiki boyliklarni mehnat, faqat mehnat tufayli yaratadi. Shu boisdan kishilar mehnatni qadrlaydilar, ulug‘laydilar, yoshlarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalaydilar. Bu maqolda “O‘zi ishlab topgan non asaldan ham shirin”,-deya yoshlarni mehnatsevarlikka chaqirilmoqda.

* * *

“Novvoy chaqirgani ham kekirdak kerak”.

O‘tmishda shaharlarning bozorlarida novvoylar non sotishgan savatni boshlariga qo‘yib, tumonat odam orasida baland ovoz bilan: “Issiq non, shirmoynon”,-deb nonlarini maqtab o‘tadilar. Olomon ichida, olag‘ovurda, ketayotgan novvoyning nonidan olishni istagan odam: “Novvoy, hoy, novvoy”,-deb unga tovush yetkazishi uchun

baland ovoz bilan chaqirishi, ya'ni "Kekirdak cho'zishi" kerak bo'ladi. Shu holat misolga olib aytilgan mazkur maqolning majozan: "Bu ishni qilish oson emas, ko'p kuch sarflash kerak bo'ladi",- degan ma'noda qo'llaydilar. Masalan: to'y- ziyofatda ashulasini aytib, biroz nafas olish uchun o'tirmoqchi bo'lgan hofizdan "Juft bo'lsin, juft bo'lsin",- deb iltimos qiladilar. U yana aytadi. Keyin yana "Juft bo'lsin",- deyaverishgach, hazil-mutoyiba tarzida "Jon akalar, axir "Novvoy deb chaqirishga ham kekirdak kerak",-deb o'zining charchaganini bildirgan.




* * *

"Arpa bug'doy osh ekan, oltin –kumish tosh ekan". Qadim zamonda ikki kishi uzoq safarga chiqmoqchi bo'lishibdi. Yo'l olis, odam yursa, oyog'i, qush uchsa, qanoti kuyadigan biyobonlardan o'tar ekan. Ulardan biri boy bo'lib, u o'zi bilan bir xalta oltin olibdi. Ikkinchi kishi kambag'al ekan. U o'zi bilan bir xalta qotgan non olibdi. Shunda boy kambag'al sherigining ustidan kulibdi:

-Quruq non bilan olis yurtida tirikchilik qilib bo'lar ekanmi? Oltin olish kerak, oltin har qanday yurtida qadrli, istagan narsani sotib olish mumkin,- debdi. Kambag'al sherigi indamabdi.

Ikkovi yo'lga chiqishibdi. Yo'l yuribdilar, yo'l yursalar ham mo'l yuribdilar. Inson zoti yashamaydigan sahro-yu cho'llardan o'tib, rosa charchab, ochiqibdilar. Bir yolg'iz daraxt soyasida dam olish uchun o'tirishibdi. Xurjuni oltin bilan to'ldirgan boyning ochlikdan tinkasi quribdi, ammo bir burda non so'rashga or qilibdi. Hamrohining unga rahmi kelib, nonidan sinbdirib beribdi. Ikkovi baham ko'rib ovqatlanibdilar va eson-omon manzilga yetib boribdilar. Oltinga ishongan, nonni mensimagan odam xijolatda qolibdi, xatosini tushunibdi. Shundan keyin xalq orasida yuqoridagi maqol paydo bo'libdi.



Dunyoda non isidan ham yoqimliroq is yo'q, don mehnatidan ortiqroq mehnat.

* * *

“Arpa og‘sa, kandugingni tuzat, bug‘doy og‘sa, somonxonangni”. Tajribakor dehqonlarning aytishicha, agar arpa boshog‘ini ko‘tarolmay bir tomonga o‘g‘sa, soyada doni to‘lishib hosildor bo‘ladi. Shuning uchun “g‘alla soladigan kandugingni tuza, ya‘ni o‘rim – yig‘imga taraddudingni ko‘raver”,- deganlar. Agar bug‘doy og‘sa, buning aksicha, boshhoqlari bir – birining ustiga yotib, qizib, dimiqib, doni puchqoq bo‘lib qoladi. Natijada ekinning hammasi somonga chiqib ketadi. Shuning uchun “somonxonangni tuzat”,- deganlar. Variantlari: “Bug‘doy boshog‘i tursa, omboringni, bug‘doy boshog‘i yotsa molxonangni tuzat”, “Donning bo‘lig‘i – omborning to‘lig‘i”.

Masal¹

-Hayotda zo‘r va mo‘tabar nima bo‘lsa bu-sensan! Meni ham sen dunyoga keltirib, qayrab, voyaga yetkazgansan. Shuning uchun ham bir umrga senga ta‘zim qilishni o‘zim uchun burch deb bilaman,-debdi Aql Kitobga.



-O, bilmasang bilib, qulog‘ingga quyib ol. Mendan mo‘tabarroq narsa bor. Bu-non! Men bir umr ana shu hayot mo‘jizasi oldida qarzdorman!-javob qilibdi Kitob.

-Non?-taajjublanib debdi Aql.

-Ha, non mendan ulug‘, zero avval nonni so‘ng meni qo‘lga oladilar. Shundan keyin sening zexningni charxlayman. Non bo‘lmasa, kishilar meni qo‘llariga olish u yoqda tursin, balki qiyo ham boqmaydilar. Shuning uchun ham sen minnatdorchiligingni, eng avvalo, ana shu nonga ayt. Ha!

¹ Jalilova H., Shonazarov M. Non rizq-ro‘zimiz. Toshkent: O‘qituvchi, 1988. B-20.

AFSONALAR

Non eng yaxshi qalqon¹

Aytishlaricha, bir yurtga dushman bostirib kela boshlabdi. Podsho yurtdagi navqiron yigitlarni Vatanni himoya qilishga jo‘natibdi. Ziyod otaning yolg‘iz o‘g‘li ham jangga o‘tlanibdi. Ziyod ota o‘g‘liga onasining xokidan va o‘zi yetishtirgan bug‘doy nonidan berib, ularni qo‘ynidan qo‘ymaslikni buyuribdi.

Ikki orada qattiq jang bo‘libdi, har ikki taraf ko‘p talofat ko‘ribdi. Ziyod otaning o‘g‘li ham tinmay jang qilar emish-u, unga hech narsa bo‘lmasmish. Jang to‘xtatilganda podsho yigitdan buning sababini so‘rabdi. Voqeani bilgach, podsho tezda issiq non yopishni va har bir suvoriysiga ikkitadan non tortishni buyuribdi. “Nonning birini yesin, ikkinchisini beliga tugib olsin”,-deb amr etibdi. Podshoning buyrug‘i bajo keltirilibdi. Jangda dushman o‘qi hech kimga kor qilmabdi. Yengilayotganini bilgan bosqinchilar kelgan tomonlariga qarab qochib qolishibdi. El-yurt omon qolibdi. Ana shundan keyin “Noni borni o‘q olmas”,-degan hikmat paydo bo‘libdi.

Nodon ayiq²

Qadim zamonda Quyonvoy bilan Ayiqpolvon inoq yashar ekanlar. Bir kuni ular sheriklikda dehqonchilik qilmoqchi bo‘lishibdi. Ayiqpolvon kuchli bo‘lsa ham juda laqma, Quyonvoy bo‘lsa, ziyrak va mug‘ombir ekan. Ekin ekish oldidan Quyonvoy Ayiqpolvonga aytibdi: “Do‘stim, avval boshida shartlashib olaylik, sen ekinni boshi bilan bo‘lasanmi, tagi bilanmi?”. Albatta, boshi bilan bo‘lamanda”,-debdi Ayiq.



Shu maslahatdan so‘ng Quyon sabzi urug‘ini olib kelibdi. Ikkovi birgalashib urug‘ sepishibdi, ekinni sig‘orib, astoydil qarashibdi. Eng

¹ Shirinboyev Sh. Non. Toshkent: O‘qituvchi, 1992. B-29-35.

² Murodov M. Oltin sandiq ochildi. O‘qituvchi. 1994. B-22.

og‘ir yumushlarni Ayiqpolvon bajaribdi. Dalada ekinlar juda chiroyli bo‘y cho‘zibdi. Quyonvoy esa hosil pishgach, bargini Ayiqqa berib, sabzisini o‘zi olibdi. Bu hol Ayiqqa rosa alam qilibdi.

Kelasi yili ekin ekishdan oldin Ayiq: “Bultur pand yedim, endi tagini olaman”, - debdi. Quyon rozi bo‘lib, yerga bug‘doy ekibdi-da, hosil pishgach, donini o‘zi olib, somonin Ayiqqa beribdi...

Nodon Ayiq farosatsizligi tufayli qancha mehnat qilsa ham hech narsasiz qolaveribdi. Xalqimiz orasida “Bug‘doy hosili boshida, sabzi hosili tagida” maqoli ham bor

Ilon zahrini non daf etar¹

Kampir va uning o‘tinchi o‘g‘lining kulbalarida ikkita ilon paydo bo‘libdi. Bola o‘zi va onasini himoya qilib, ilonlarni o‘ldirmoqchi bo‘libdi. Birini o‘ldirguncha ikkinchisi qochib qolibdi. Biroq shundan keyin tirik qolgan ilon unga kun bermay qo‘yibdi. Bola ilondan qochib tog‘ga, qo‘ychivonlar orasiga chiqib ketibdi. Podani yetaklovchi serkaning shohiga o‘ralib ilon ham jo‘nabdi. Oxiri bola bo‘lgan voqeani qo‘ychivonlarning bobokaloniga aytib beribdi. Bobo bolaga: “Qo‘lingga non bilan ketmon olasan-da, ilonga ro‘baro‘ bo‘lasan. Ilon bor kuchi bilan bilan senga tashlanadi, ketmonni teshib o‘tadi-yu, nonga qolganda botinolmaydi. Non ulug‘ ilonni ham daf eta oladi”,-debdi.

Bola boboning aytganlarini qilibdi. Ilon o‘qdek otilib, ketmonni teshib o‘tibdi-yu, nonga hamla qilolmabdi. O‘zini yerga otib parcha-parcha bo‘lib ketibdi. Non tufayli bola omon qolibdi. Shundan keyin xalq orasida “Ilon zahrini non daf etar” naqli paydo bo‘libdi.

Non ramzi²

Siz har kuni erta bilan kalendar varag‘ini yirtganingizda o‘rtasida nuqtali doira belgisiga ko‘zingiz tushadi. Bu belgi qadimgi Shumer iyeroglif yozuvlarida uchraydi, nomi – «RA», ma’nosi esa “quyosh”dir. Bu belgi keyinchalik nonning ramzi sifatida qo‘llaniladigan bo‘lgan. Ko‘p xalqlar buni qabul qilib, nonni shu ramzda ifodalashgan yoki shunga o‘xshash non yasashgan. Zog‘ora va gijda nonlarning suratlariga e’tibor bilan qarasangiz: doira, o‘rtasida esa nuqtasi bor.

Quyosh bilan nonni bir belgi orqali ifodalash — har ikkisi ham hayotning asosiy omili ekanligida. Quyosh bo‘lmasa, non yetishtirish mumkin emas, non bo‘lmasa hayot

¹ Murodov M. Oltin sandiq ochildi. O‘qituvchi. 1994. B-22.

² Jalilova H., Shonazarov M. Non – rizq-ro‘zimiz. -Toshkent: O‘qituvchi, 1988. B-34.

kechirish qiyin. Shu sababli qadimgi xalqlarda quyoshga sig‘inish bilan birga nonga ham sajda qilingan.

Nonni shar tarzida zuvala qilib qo‘rga (ko‘mach) pishirish, doira shaklida yasab pechkada pishirish yoki likopchasimon yasab tandirga yopish (patir, lavash, kulcha) usullari yolg‘iz bizda emas, jahondagi barcha xalqlarda hanuzgacha saqlangan. Bu ham nonni quyosh ramzida tasavvur etishning yorqin misolidir.



Patir nonlarning yuziga quyuq chakich urilishi — quyosh jimirlashining ramziy ifodasidir. Shirmoy hamda lochira nonlar

chetlarini pichoqda kesib parraksimon yasash ham quyoshdan nur taralayotganligining ramziy ifodasidir.

Gaznon¹

Afsonalarga ko‘ra, qadim zamonlarda Yangiqo‘rg‘on yo‘nalishidan juda katta karvon o‘tgan ekan. Ular yo‘lma – yo‘l turli joylarda to‘xtab, tunab, oziq olib yo‘lga chiqishar ekan. Har gal bir joyda to‘xtashganda, u yer aholisi ularni katta – katta nonlar bilan mehmon qilishar ekan. O‘sha paytda hajm o‘lchovi gaz deb atalar, katta –katta nonlarni esa, gaz – gaz non deyilar ekan. Karvondagilar har gal quyuq mehmondorchilik bo‘ladigan joyga yetay deganlarida, karvonboshi bor ovozda: “Gaz –gaz² nonga keldik”-der ekan. Bora – bora o‘sha joy nomi Gaznon deb ataladiganbo‘libdi.

¹ Gaznonda yashovchi ona tili va adabiyot o‘qituvchisi Zarifaxon Nabiyevadan yozib olindi

² Gaz- uzunlik o‘lchov birligi. Qayerda va nimaga ishlatilishiga qarab gazning qiymati har xil bo‘lgan.



Nonga e'tibor – elga e'tibor

RIVOYATLAR

Non isi¹

Hirotning sultoni Husayn Boyqaro “Dunyodagi eng yaxshi hidni keltiring”, - deb qolibdi. Unga quchoq-quchoq gul, qalampir-munchoqdan tortib yer yuzidagi hamma xushbo‘y narsani muhayyo qilishibdi. Podshoh hammasini rad etibdi. Vazirlar Navoiyning yoniga borib voqeani aytishibdi. Navoiyning ham boshi qotib, dehqonboboga murojaat qilgan ekan, u: “Yangi yopilgan nondan olib boringlar-chi, otam rahmatli, dunyoda eng yoqimli hid - qayroqi bug‘doy unidan yopilgan tandir nonining hidi bo‘lib, hech qaysi is unga yetolmaydi, deguvchi edilar”, - deb maslahat beribdi.

Navoiy xursand bo‘lib, bir savat non yoptiribdi-da, saroyga yetib boribdi. Bir zumda saroyga ajib yoqimli hid tarqalib, barchaning dilini yashnatib yuboribdi. “Rahmat, do‘stim, - debdi Husayn Boyqaro, - ko‘nglim yangi yopilgan non isini istayotgan ekan”. “Sultonim, rahmatni menga emas, dehqonboboga ayting. Ko‘nglingiz xohishini shu kishi topdi”, - deb javob beribdi Navoiy. Shunda Husayn Boyqaro dehqonni saroyga chaqirib, boshdan-oyoq sarpo berishni buyuribdi.

Non-iymon²

...Alisher Navoiy qo‘shni mamlakatlardan birida sayohatda yurib iztirob o‘tida qovrilayotgan bir ayolga duch kelibdi. Undan g‘amginligining sababini so‘rabdi. Shunda ayol: “Podshohimiz-ning bir odati bor. O‘zi tug‘ilgan kunida dunyoga kelgan bola o‘n beshga kirdi deguncha uni o‘ldirib yuboradi. Ne-ne bolalar bevaqt nobud bo‘ldi. Mening to‘ng‘ichim ham ertaga o‘n beshga to‘ladi. Podsholikka qancha urinmay ayg‘oqchilar payqab qolib, podshohga xabar qilishgan ekan. Saroydan odam kelib: “Ertaga o‘g‘ling o‘n beshga to‘ladi, olib ketamiz”, - deyishdi. Nuri diydanning kuni bitdi, podsholikdan tirik qaytishiga hecham aqlim yetmaydi. Qanotidan qayrilgan lochin ucholmaganidek, bolamdan ayrilib qolgan kunim mening o‘lganim. Men yiglamay, kim yig‘lasin”, - debdi.



Navoiy ayolning o‘g‘liga kirib unga: ”Onang sutdan xamir qorib, senga ikkita kulcha yopib bersin. Bu kulchalarni qo‘yningga solgin-da

¹ Jo‘rayev M. El desa Navoiyini: Buyuk shoir haqidagi rivoyatlar. – T.; O‘qituvchi, 2004. B-55

² O‘sha manba. B-55

podsho saroyiga bor. Podsho seni o‘limga hukm qiladi. Sen qo‘rqma. Jallodlar hukmni ado etish oldidan podsho odati bo‘yich sendan: “O‘liming oldidan oxirgi iltimosingni ayt, bajaraman”,-deb so‘raydi. Shunda sen: “Sultonim shu kulchani yesalar”,- deysan-da, kulchadan birini podshoga uzatasan. Podsho olmaydi. Qahr-g‘azabga kelib: “Meni o‘ldirmoqchi bo‘lib, kulchaga zahar qo‘shgan bo‘lsang-chi?”,-deydi. Shunda ham sen dadil: “Mana kulchaga zahar qo‘shilganmi – yo‘qmi ko‘ring”,-deysan-da, kulchani teng ikkiga ushatib, yarmini o‘zing yeysan. Keyin podsho noiloj qolib yarmini yeydi”,-deb tayinlabdi.

Ertasiga tong saharda bolani saroyga olib ketishibdi. Bola Navoiyning hamma aytganlarini qilibdi. Kulchaga zahar qo‘shilmaganini ko‘rgan podshoning o‘z va‘dasini bajarishdan boshqa iloji qolmabdi. Kulchanning qolgan yarmini yebdi... Buni qarangki, yegani sari podshoda bolaga mehr uyg‘ona boshlabdi. Uni shuncha o‘ldiray dermish-u, hecham o‘ldirolmash. O‘ylab – o‘ylab oxiri: “Kel,- debdi podsho o‘ziga – o‘zi,- yonimda olib qolsam, podsholigimni talashmas”. Shundan so‘ng bolani o‘ldirish fikridan qaytib, ozod qilibdi. Shu –shu tug‘ilgan kunida dunyoga kelgan bolalarnin o‘ldirish odatini tashlabdi. Hamma Navoiydan minnatdor bo‘libdi...

Navoiy va tandir voqeasi¹

Aytishlaricha, Alisher Navoiyning Mamat aka degan qo‘shnisi bo‘lar ekan. Mamat aka umr bo‘yi ishlab, birgina uy qura olgan ekan, xolos. Bor bisoti ham shu bino ekan. Uning Xudoyberdi degan o‘g‘li bo‘lib, hech qayerda ishlamas, tun-u kun tarallabedoddan bo‘shamas ekan. Kunlardan bir kun Mamat aka shoirning huzuriga kelibdi-da:



-Hazrat, o‘zingizga ayonki, men ancha – muncha yoshga borib qoldim. Bugun bo‘lmasa ertaga tarallabedoddan bo‘shamas ekan. Kunlardan bir kun Mamat aka shoirning huzuriga kelibdi-da:

-Hazrat, o‘zingizga ayonki, men ancha – muncha yoshga borib qoldim. Bugun bo‘lmasa ertaga omonatni topshiradiganga o‘xshayman. Sizga bir iltimosim bor, xo‘p desangiz aytay,- debdi.

-Bajonidil bajarurmen, - debdi Alisher Navoiy.

¹ Madayev O. “Navoiy suhbatlari” Toshkent-2018. “O‘qituvchi”. B-9.

-Iltimosim shuki,- so‘zini davom ettiribdi Mamat aka,- men bu dunyodan ko‘z yumgan kunimoq, bolasi tushmagur Xudoyberdi kulbani sotadigan ko‘rinadi. Nima qilib bo‘lsa ham uni bu yo‘ldan qaytarsangiz. Axir, “Vatan gadosi – kafan gadosi”, deb bekorga aytishmagan. Mendan keyin Xudoyberdini bunday uy tiklab olishiga hech ishonmayman. Kulbasiz ko‘chalarda qolib xor bo‘ladi,-debdi Mamat aka ko‘ziga jiqqa yosh olib:

-Aytganingiz bo‘ladi, menga ishonavering, - deb uni yupatibdi Alisher Navoiy.


Mamat aka uyiga kelib o‘g‘lini oldiga chaqiribdi-da:

- Bolam, - debdi unga qarab,-mabodo kunim bitib qazo qilsam, uyni aslo sota ko‘rma, keyin tiklay olmaysan. Bordi-yu, judayam sotging kelsa, Alisher Navoiy hazratlarining oldilaridan bir o‘tib keyin bu ishga qo‘l ur. Ishonchim komilki, u kishi senga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatib beradilar. Mamat aka olamdan o‘tibdi. Xudoyberdi uyni sotish taraddudiga tushib qolibdi. “Otam uyni sotadigan bo‘lsang, Alisher Navoiyning oldidan bir o‘t”,- degan edi, hazrat qanday yo‘l ko‘rsatarkan”,-debdi-da, shoirning huzuriga borib maqsadini aytibdi. Shunda Alisher Navoiy:

-Yaxshi, ammo tandirlaring bir oz eskiroq ko‘rinadi. Buzib yangisini qur. Uyning narxi ikki barobar ortadi,- debdi.

-Xudoyberdi uyga kelib tandirga qarasa, haqiqatan ham, juda eski, bir tomoni nuragan emish. “Hazrat to‘g‘ri aytadi, buni buzib yangisini qursam, uyning narxi ikki barobar oshadi”,-debdi-da, tandirni buzibdi. So‘ng qo‘shni qishloqdagi tandirchilikiga jo‘nabdi. Undan tandir sotib olibdi-da, orqaga qaytibdi. Yo‘lda nihoyatda charchabdi. “Bir oz nafasimni rostlab olay”,-deb bir do‘nglikka o‘tirmoqchi bo‘lgan ekan, tandir yerga qattiqroq tegib ketib, sinib qolibdi! Xudoyberdi orqaga qaytib, haligi ustadan yana bitta tandir sotib olibdi. Uyga yetay deganda uni ham sindirib qo‘yibdi. Uchinchi tandirni bir





Buvinning sabog'i – hayotim chirog'i

ilojini qilib uyga olib kelibdi-da, eskisini o‘rniga qura boshlabdi. Ustiga ko‘p loy bostirib yuborgan ekan, ertalab o‘rnidan turib qarasa, tandir tushib yotgan emish. Xudoyberdining jahli chiqib: “Alisher Navoiy nega meni bunchalik ovoragarchilikka solib qo‘ydi!”,-debdi-da, uning oldiga boribdi.

Alisher Navoiy supada o‘tirib she‘r bitish bilan band ekan.

-Hazrat,-debdi Xudoyberdi unga qarab,- tandirni qurolmadim. Mayli arzonroqqa ketsa ham, uyni tandirsiz sota beraman.

-Hovliqmay so‘zimni eshit, - debdi Alisher Navoiy, - ko‘rdingmi, birgina tandirni eplab qurolmading, ammo uyni sotmoqchi bo‘lasan. “Beli og‘rimaganning non yeyishini ko‘r”, deb bekorga aytishmagan. Uyni sotib, yangisini tiklay olmay, ko‘chalarda qolib ketishni o‘ylamadingmi?! Bor, ishla! Uy ham yonga qoladi, tirikchiliging ham o‘tadi. Balki yaxshi yashab ketarsan. Alisher Navoiyning aqlli tadbir va dono so‘zlariga tan bergan Xudoyberdi uyni sotmay, ishlab yaxshi kun kechira boshlabdi.

Amir Temur va kampir¹

Bir kuni Amir Temur Hindistonni zabt etish uchun boribdi. Hindistonliklarni kuchsizligini sezgach, to‘g‘ri markazga hujum boshlabdi. Markazga hujum qilgan paytda atrofdagi shaharlar ham ko‘makka kelib Amir Temur askarlarini Hindiston atrofiga tarqalishga buyruq beribdi. O‘zi ham Hindiston qishloqlarini aylanib hududni o‘rgana boshlabdi. Qorni ochib bir kichkina eshikni taqillatibdi. Ichkaridan munkillagan kampir chiqib, uni uyga taklif qilibdi. Amir Temur kampirga qorni ochqaganini aytibdi.

Kampir bir ozdan so‘ng podshohga atala olib kelibdi. Amir Temur shoshilib atalani ichgan ekan, og‘zi kuyib qolibdi. Shunda kampir: “O‘g‘lim, sen Amir Temurga juda o‘xshar ekansan”,- debdi. Amir Temur: “Siz Amir Temurni ko‘rganmisiz?”,-deb so‘rabdi. “Yo‘q, ko‘rmaganman. Lekin u ham senga o‘xshab harakat qildi. Atalani avval usti – ustidan yeyish kerak. Birdaniga sendek ostiga qoshiq tiqib olinsa, til kuyadi. Amir Temur ham xuddi shunday qildi. Chekka qishloqlarni nazar-pisand qilmay, birdaniga markazga hujum qildi. Natijada chekinishga majbur bo‘ldi. Agar avval chekka qishloqlarni egallab, so‘ng markazga hujum qilganda edi, allaqachon Hindistonni egallagan bo‘lar edi”,-dedi. Amir Temur kampirga rahmat aytib chiqibdi-da, tezda

¹ Matbuot manbalari.

qo'shinini to'plab, chekka qishloqlardan hujum boshlabdi. Ko'p vaqt o'rmay Amir Temur Hindistonni egallabdi.

Non urib qo'ymasin¹

Bir yurt podshohi o'z mamlakatini kengaytirish, hukmronligini mustahkamlash maqsadida boshqa yurtlarni bosib olmoqchi bo'libdi. U lashkarlariga ayovsiz jang qilishni, hammani qo'l ostiga bo'ysundirishni buyuribdi. Fotihlikni qo'shni mamlakatni egallashdan boshlamoqchi bo'libdi. Lekin u yurtning chegarasiga yetish uchun 2 oy yo'l yurish kerak ekan. Podshoh lashkarlari bilan uzoq yo'l yurib, erta tongda shahar chegarasidagi bir kichik qishloqqa yetib boribdi. Dushman bostirib kelayotganini bilgan qishloq ahli uy – uylariga kirib yashirinibdilar. Podshoh lashkarlariga chegarada o'tov tikib dam olishni buyuribdi. O'zi esa xos navkavlar bilan sharoitni bilish uchun qishloq ichiga kirib ketibdi. Qishloqqa kirishar ekan dimoqlariga xushboy is urilibdi. Ular ana shu muattar hid taralayotgan tomonga qarab yurishibdi. Mo'jazgina kichik hovlida bir kampir tandir to'la non yopayotgan ekan. U eshik yonidagilarni korib savat to'la nonini ko'taribdi-da, eshik yonidagilarga peshvoz chiqibdi:

-Xush kelibsiz, mehmonlar, qani issiq nondan olinglar-chi!

Fotihlar qornilari och bo'lgani uchun nondan olib yeya boshlashibdi. Shunda podshoh:

-O'ylashimcha, siz bizni tanimadingiz,- debdi.

-Yo'q sizlarni yaxshi tanidim. Faqat yurtimizga kelgan inson kim bo'lsa ham uni mehmon sifatida ochiq yuz bilan kutib olish odat tusiga kirgan,- deb javob beribdi.

Podshoh indamay chiqib ketibdi. Hech narsani tushunmagan navkarlar uning ketidan ergashibdilar. Podshoh bek-u navkarlar yoniga yetgach, tezda ortga qaytishga buyruq beribdi. Lekin hamma buning sababini so'rab turib olibdi. Shunda podshoh:

-Biz bu yurtga kelib yegan birinchi taomimiz issiq non bo'ldi. Agar endi bu yerga hujum qilsak, non uradi,-debdi-yu, lashkarlarini olib yurtiga qaytibdi.

¹ Yangiqo'rg'on tumani Nurafshon qishlog'ida yashovchi 75 yoshli Hurmatxon ona Isaqovadan yozib olindi.

Non - muqaddas¹

Qadim zamonda Xorazm yurtiga dushman bostirib kela boshlabdi. U Xorazm yurtini jangsiz egallash maqsadida yaylovda qo'y boqib yurgan cho'ponni tutib kelishlarini buyuribdi. Navkarlar cho'ponni tutib keltirishibdi. Podshoh cho'ponga juda ko'p tilla taklif qilib, evaziga Xorazmga yashirin kirish yo'lini talab qilibdi. Cho'pon indamay uni eshitib turaveribdi. Podshoh bor shartini aytib bo'lgach, cho'ponga sharob beprishlarini buyuribdi. Cho'pon atrofni qarasa, juda ko'p dushman unga yomon nazar bilan qarab turgan ekan. Sharobni olibdida, shartta ichib yuboribdi. Buni ko'rgan podshoh unga ikkita issiq non beribdi. Cho'pon nonni olibdi-yu. Ko'ziga surtib qo'yniga tiqibdi. Podshoh undan nonni yemaganining sababini so'rabdi. Shunda cho'pon:

-Sizning mehmondorchilik hurmatingizdan o'z iymonimga qarshi tursam ham sharobni ichdim. Lekin nonga men hurmatsizlik qila olmayman. Non – iymon, uni harom ichimlik ortidan tanavvul qilmayman,-debdi. Cho'ponning nonga bo'lgan e'zozini ko'rgan podshoh:

-Agar oddiy cho'poni shu darajada e'tiqodli bo'lsa, bizning bu yurtga kuchimiz yetmaydi,- debdi-da, lashkarlarini olib yurtiga qaytibdi.

Shirmoy non²

Bir dehqon no'xat ekmoqchi bo'lib no'xatlarini suvga solib qo'yibdi. No'xatni olgach, suvini chiroyli ekanini ko'rgan ayoli uni hech to'kib yuborgisi kelmadi. No'xat suviga ozgina un qo'shib, xamir qoribdi va non yopibdi. Non juda shirin, ammo ko'rinishi ozgina sarg'ish chiqibdi. Shunda ayol uning ustiga yog' suribdi. Yog' surgan sari



¹ Yangiqo'rg'on tumani Nurafshon qishlog'ida yashovchi 92 yoshli Tursunxon ona Sobirovadan yozib olindi.

² Novvoy Sherali Avaxxonovdan yozib olindi.

nonnig ta'mi shirinlashib, yeyishli bo'libdi. Ko'p yog' surtilgan non esa shirmoy deyiladigan bo'libdi. Buning ma'nosi shir-ko'p, moy-yog' deganidir.

Non ming dardga davo¹

Samarqandda Ali degan kambag'al me'mor qattiq kasalga chalinib yotib qolibdi. Tabiblar uni o'zi qurgan tomga olib chiqishsa, dardiga da'vo topishini aytishibdi. Alining do'stlari tabibning aytganini qilishibdi. Shu shaharlik bir kosib Ma'rifat degan bir go'zal qizini qaroqchilardan yashirib, tomga olib chiqibdi. Tomda kasal yotgan Alining dimog'iga yoqimli hid kirib, yengil torta boshlabdi. Buning sababi Ma'rifat olib chiqqan Samarqand noni ekan-da. Qiz Aliga har kuni non yediribdi. Bundan Alining kuchiga-kuch qo'shilib, sog'ayib qolibdi. Ikki yoshning mehri bora-bora muhabbatga aylanibdi. Yurt tinchigach Ali va Ma'rifat turmush qurishibdi. Ali ko'rkam binolar quribdi, Ma'rifat esa Samarqand patirlaridan yopib, xalqni xursand qilibdi. Ma'rifat yopgan nonlar butun dunyoga mashhur bo'lib ketibdi. Shundan keyin "Jaydari non va toza havo ming dardga da'vo" naqli paydo bo'libdi. Hozir ham yurtimizda kelgan har bir sayyohlar eng katta sovg'a sifatida Samarqand nonlaridan olib ketadilar.

Amirni yenggan non²

Samarqand nonlari qadimdan maza-ta'mi bilan dong taratgan. Hozir ham hech kim bu maskandan Samarqand nonisiz qaytmaydi. Aytishlaricha, haqiqiy Samarqand noni 3 yilgacha aynimas ekan. Uni ancha vaqtdan keyin ham yuziga suv purkab, tandir yoki pechda isitib yeyish mumkin. Samarqand nonini qadimda Buxoro amiri ham juda xush ko'rgan ekan. Shu sababli Amir ushbu nonni o'z saroylarida yopishlarini istabdi. Saroy a'yonlari Samarqanddan eng yaxshi novvoyni olib kelib, unga Samarqand nonini yopishni buyuribdilar. Novvoy ular aytganidek qilibdi. Ammo uning qancha urinishlariga qaramay, nonlarining na ma'zasi, na yumshoqligi Samarqanddagi nonlaridek chiqmabdi. Shunda novvoy: "Hamma gap Samarqand suvida, unida

¹ M. Murodov. Oltin sandiq ochildi. O'qituvchi. 1994. B- 2

² Ona tili va o'qish savodxonligi. 2-qism [Matn]: darslik 2-sinf uchun / K. Mavlonova [va boshqalar]. – T.: Respublika ta'lim markazi, 2021.

yoki Samarqand tuprog‘idan qurilgan tandirda bo‘lsa kerak”,- deb aytibdi. Uning aytganini qilib, Samarqand suvini ham, uni va tandırini ham keltirishibdi. Lekin bu gal ham tandirdan chiqqan non ko‘ngildagidek bo‘lmabdi. Shunda novvoy: “Nonlarimning Samarqanddagidek chiqishi uchun u yerning havosi ham zarur bo‘lsa kerak”,-debdi. Samarqand havosini olib kelishning iloji yo‘qligini tushungan Amir novvoyni ortiq qiynamabdi. Amir sevgan nonlarini esa yana Samarqanddan keltirishda davom etishibdi.

Non-hamroh¹

Qadim zamonda ikki kishi uzoq safarga chiqmoqchi bo‘lishibdi. Yo‘l olis, odam yursa, oyog‘i, qush uchsa, qanoti kuyadigan biyobonlardan o‘tar ekan. Ulardan biri boy bo‘lib, u o‘zi bilan bir xalta oltin olibdi. Ikkinchi kishi kambag‘al ekan. U o‘zi bilan bir xalta qotgan non olibdi. Shunda boy kambag‘al sherigining ustidan kulibdi: -Quruq non bilan olis yurtda tirikchilik qilib bo‘lar ekanmi? Oltin olish kerak, oltin har qanday yurtda qadrli, istagan narsani sotib olish mumkin,- debdi. Kambag‘al sherigi indamabdi. Ikkovi yo‘lga chiqishibdi. Yo‘l yuribdilar, yo‘l yursalar ham mo‘l yuribdilar. Inson zoti yashamaydigan sahro-yu cho‘llardan o‘tib, rosa charchab, ochiqibdilar. Bir yolg‘iz daraxt soyasida dam olish uchun o‘tirishibdi. Xurjinni oltin bilan to‘ldirgan boyning ochlikdan tinkasi quribdi, ammo bir burda non so‘rashga or qilibdi. Hamrohining unga rahmi kelib, nonidan sinbdirib beribdi. Ikkovi baham ko‘rib ovqatlanibdilar va eson-omon manzilga yetib boribdilar. Oltiniga ishongan , nonni mensimagan odam hijolatda qolibdi, xatosini tushunibdi. Shundan keyin xalq orasida “Safar vaqtida non yuk bo‘lmas” maqoli paydo bo‘libdi.

¹ Z. Ibrohimova.Gulguna. - T.: Yangi nashr. 2010. B-254

Halol non-rohati jon¹

Saxiyliги bilan nom chiqargan Hotamtoy podsho bir kuni bozor boshida butun xalqqa non tarqatibdi. Qaytayotib bozorda sotish uchun o‘tin terib kelayotgan cholni ko‘ribdi. Undan tayyor nonni olmasdan bunday qiynalib yurishining sababini so‘rabdi. Shunda chol: “Podshoning bergan noni minnatli, mehtat bilan topgan nonim esa halol va barakalidir”,- deb javob beribdi. “Bu bilan inson doim o‘z halol mehnati orqali kun ko‘rishi kerakligi, hech qachon birovning qo‘liga qarab, unga qaram bo‘lib yurmasligi insoniy burchlaridan biri bo‘lishini aytiladi.

Bug‘doy so‘z –shirin so‘z²

Rivoyat qilishicha, bir podsho tushida hamma tishi tushib ketganini ko‘ribdi. Yoniga munajjimni chaqirib tushining ta‘birini so‘rabdi. Munajjim hamma qarindoshlari vafot etib, yolg‘iz podsho qolishini aytibdi. Bundan g‘azablangan podsho uni qatl etishni buyuribdi. Shu payt saroyga devona bir burda non so‘rab kelibdi. Podsho devonaga: “Agar tushimni ta‘birini aytsang, butun umringga yetadigan boylik beraman”,- debdi. Shunda devona: “Ey podshohi olam, sizning noningiz butun, rizqingiz ulug‘ ekan. Umringiz barcha qarindosh – urug‘laringizdan ham uzoq bo‘lar ekan”,- deb javob beribdi. Xursand bo‘lgan podsho unga va‘da qilgan oltinlarini beribdi. El orasida esa: “Bug‘doy noning bo‘lmasa ham, bug‘doy so‘zing bo‘lsin” naqli paydo bo‘libdi.



¹ O‘zbek folklori ocherklari. / Tuzuvchi: Mirzayev T./ -T.: Fan, 1988.

² Z. Ibrohimova.Gulgun. - T.: Yangi nashr. 2010. B-254

Ulug'bekning donoligi¹

Kunlardan bir kuni Mirzo Ulug'bek huzuriga bir kishi keiib, o'z do'stining xiyoratidan shikoyat qildi:

Bundan bir necha kun ilgari Buxoroni ziyorat qilish niyatida Samarqanddan yo'lga chiqdim.. Ikki farsah yo'l yurganimdan keyin juda charchadim, qornim ham ochdi. Katta bir ariq bo'yida o'sgan daraxt soyasida o'tirib, dam oldim, ovqatlana boshladim, Shu payt do'stlarimdan biri yo'ldan o'tib qoldi. Men uni ham ovqatga chaqirdim, keldi, birgalashib ovqatlandik, gurunglashib o'tirdik. So'ngra do'stim ketmoqchi bo'lib o'rnidan turdi, men bolalarim uchun olgan shurmoy nonlarni unga berib:

-Do'stim, shu nonlarni senga omonat tariqasida topshiraman, uyingga qaytgach, shuni oilamga berishingni o'tinaman,-dedim.

Do'stim nonlarni qabul qilib, omonatni oilamga topshirishga va'da berdi. Bir necha kundan keyin Buxorodan Samarqandga qaytib keldim.



Do'stimning omonatni oilamga topshirmagani ma'lum bo'ldi. Darrov do'stimning yoniga borib, undan omonatni oilamga topshirmaganining sababini so'radim. Mendan hech qanday non olmaganini hatto meni ko'rmaganini aytib, tonib tura berdi. Shining uchun arz- dodimni sizga aytgani huzuringizga

keldim.

Mirzo Ulug'bek uning xiyonatchi do'stini huzuriga chaqirtirib keltirdi va bo'lgan voqeani batafsil aytib berishni so'radi. Lekin kishi bunday deb javob berdi:

– Men katta ariq bo'yidagi daraxt soyasida u bilan o'tirib ovqatlanganim u yoqda tursin, hatto uning o'zini ham ko'p vaqtlardan beri ko'rmaganman. U daraxt qayerda va qaysi ariq bo'yida ekanini ham bilmayman.

Shundan so'ng Mirzo Ulug'bek non egasiga buyurdi:

¹ Murodova M. Folklor va etnografiya. "Aloqachi". -T., 2008.


- Sen darrov o'sha daraxtning bir nechta bargidan olib kel.
- Non egasi ketgach, Mirzo Ulug'bek uning xiyonatchi do'stini yoniga o'tqizib, chaqchaqlashib o'tirdi. So'ng uni gapga qiziqtirib turib:
 - U kishi daraxt yoniga yetganmikan? Daraxt juda uzoqda bo'lsa kerak, u kishi shu paytgacha kelmadi ?-degan edi, gapga qiziqib qolgan xiyonatchini g'aflat bosdi:
 - Hali yetgani yo'q, daraxt ancha-uzoq yerda,-deb tilidan ilindi. Mirzo Ulug'bek kula-kula unga dedi:
 - Hozirgina u daraxtni sira ham ko'rganim yo'q,-deb aytgan edingku, u kishining haligacha daraxt yoniga yetmaganini, daraxt uzoq joyda ekanini qayerdan bilasan? Bema'ni so'zlani so'zlama, tur o'rningdan, omonatni olib kel, bo'lmasa jazo beraman.
 - Xiyonatchi aybini bo'yniga olib, nonlarni keltirdi. Shu choqda non egasi ham yetib keldi. Mirzo Ulug'bek omonatni xiyonatchidan olib egasiga berar ekan: Non-ulug' ne'mat. Uni halollab topmasang, u seni urib qo'yadi",-debdi.

Hazrati non¹



– Qadim zamonda bir dehqon otda ketayotib beliga qistirib olgan nonidan yemoqchi bo'libdi. Uni sindirgan ekan, nonning uvog'i uchib yerga tushibdi. Haligi kishi otdan sakrab tushibdi-da, uvoqni qidira boshlabdi. Qanchalik izlamasin, baribir non uvog'ini topa olmabdi. U jo'nab ketish oldidan odamlar bilmay bosib oyoqosti qilmasin, degan fikrda tuproqni uyib, "Bu joyga non ko'milgan", deb yozib qo'yibdi. Keyinchalik odamlar o'sha joyni "Hazrati non mozori" deb ataydigan bo'lishibdi.

¹ Murodova M. Folklor va etnografiya. "Aloqachi". -T., 2008.



Otalar so‘zi – aqlning ko‘zi

Qarz¹

O'tgan zamonda Hasan ismli bir kishi o'tin terib tirikchilik qilar ekan. Har kuni topgan puliga to'qqiz dona non sotib olar ekan. Bir kuni novvoy undan buning sirini so'rabdi. Shunda Hasan: "Olgan nonlarimning ikkitasini qarzimga beraman, beshtasini esa qarzga beraman. Qolganini o'zimiz, ya'ni er-xotin yeymiz",-debdi. Novvoy bilan shogirdlari bu gapning mag'zini chaqolmay, rosa bosh qotirishibdi. Ertasiga Hasan kelgach o'zidan so'rashibdi. Shunda u: "Ikki nonni qarzimga berishimning boisi shuki, ota-onam menga bolaligidan non-tuz berib katta qilgan. Ulardan qarzdorman. Har kuni ularga bittadan non berib ana shu qarzimni uzaman. O'zimni esa besh nafar farzandim bor. Ularga bittadan – beshta non ulashaman. Vaqti kelib keksayganimda ular ham ishlab, an ashu qarzlarini uzadilar. Qolgan gaplar endi o'zlaringga ayon",-debdi. Hasanning dono so'zlariga qoyil qolgan novvoy har kun eng sara to'qqiz dona nonni unga beradigan bo'libdi.

ERTAKLAR

Ko'mach²

Bir bor ekan, bir yo'q ekan. Qadim zamonda bir chol bilan kampir bor ekan. Ularning bir ola sigiri bor ekan. Bir kuni chol: "Ola qopning unidan, ola sigir moyidan bitta ko'mach qilgin",-deb kampiriga aytdi. Kampir o'rnidan turib, ola sigirning moyi bilan ola qopning unidan ko'mach qildi. Ko'machni col – kampir oldiga qo'ydi. Chol:

-Ko'machni sindiring,-dedi kampirga.

-Siz sindiring,-dedi kampir cholga. Chol ko'machga endi qo'l uzatgan edi, ko'mach qochib ketdi. Ko'machning orqasidan chol-kampir quvib ketishdi. Qo'rg'onni uch aylanib quvib kelgandan keyin ko'mach darvozadan chiqib ko'chaga qocha berdi. Chol – kampir rosa quvib yetisholmadi.

Ko'mach cho'l-u biyobonlarda ketayotib bir yilqiga uchradi. Ko'mach yilqichining oldiga borib:

-Ey yilqichi, ola qopning unidan, ola sigirning moyidan, meni ye, meni ye, meni yemasang ota – onangning go'shtini ye,- deb qocha berdi. Yilqichi otiga minib ko'machni rosa quvdi, lekin yetolmadi. Ko'mach endi podachining oldiga borib:

¹ Murodov M. Oltin sandiq ochildi. –T.: O'qituvchi. 1994.

² Namangan xalq og'zaki badiiy ijodi. /To'plovchi va nashrga tayyorlovchilar: G'oziboyev T., Sobirov. A., / Namangan, 1993, B-38.

-Ey podachi, ola qopning unidan, ola sigirning moyidan meni ye, meni ye, meni yemasang, ota – onangni go'shtini ye,- deb qochaverdi.

Podachi ham bir ho'kizni minib, bir ho'kizni yetaklab quva berdi. Bu ham yeta olmadi. Ko'mach qochib bir qo'ychivonnig oldiga bordi.

-Ey qo'ychivon, ola qopning unidan, ola sigirning moyidan meni ye, meni ye. Meni yemasang, ota – onangni go'shtini ye,-dedi-yu qochaverdi. Qo'ychivon ham quvib yeta olmadi. Ko'mach qochib yer qazib turgan tulkinig oldiga bordi.

-Ey, tulki, ola qopning unidan, ola sigirning moyidan meni ye, meni ye. Meni yemasang, ota – onangni go'shtini ye,-dedi.

Tulki boshini ko'tarib, qulog'ini qoqib:-Eshitmayman yaqin kelib gapira ber. Uya kovlab qulog'imga tuproq to'lib qolgan,- dedi. Ko'mach tulkiga yaqin keldi. Ko'mach endi gapirmoqchi bo'lgan edi tulki unga tashlanib, ushlab oldi. Shunday qilib, ko'mach qochib – qochib, oxiri tulkiga yemish bo'ldi.

Hayvonlar va issiq non¹

Bir bor ekan, bir yo'q ekan o'rmonda tulki bilan xo'roz bor ekan. Bir kuni ular qo'r yasab, qo'rdan ko'mach pishirmoqchi bo'lishibdi. Shu payt echki kelib qolibdi. Keyin uchalasi ko'mach qila boshlashibdi. Xamir qorib, endi qo'rga ko'mishgan ekan, bir narsa dukurlab qolibdi. Tulki aytibdi:



-Xo'rozvoy, chiqib qara-chi, kim ekan? Xo'rozvoy qarasa, bir yo'lbars kelayotgan emish. Xo'roz uyga kirib tulkiga:

-Bir yo'lbars kelyapti,-debdi. Nima qilishni bilmay o'tirgan ekan, uyga yo'lbars kirib kelibdi. Tulki o'rnidan turib:

-Keling taqsir, yaxshi mehmon oshga keladi, deganlaridek, nonning pishig'ida keldingiz,-debdi va echkiga:

-Echkivoy, childirmangni qizitib mehmonga ber, ko'mach pishguncha bir ashula qilib o'tiraylik,-debdi. Echki childirmani qizitib beribdi. Yo'lbars childirmani chalib:

¹ Namangan xalq og'zaki badiiy ijodi. /To'plovchi va nashrga tayyorlovchilar: G'oziboyev T., Sobirov. A., / Namangan, 1993, B-38.

Childirmani chalaman
Bo‘lib xushvaqt yor – yor,
Echki, xo‘roz non qilar,
Bo‘lgay ovqat yor – yor, - deb ashula qilibdi. Keyin navbat tulkiga kelibdi. Tulki ham:
Yo‘lbarsday mehmonimiz,
O‘tkir tovush o‘rgilay.
Terisi Boltaboyga
Bo‘lar kovush yor – yor,-deb ashula qilibdi.
Yo‘lbars o‘ylabdi. Bular aytgan Boltaboy zo‘rmikin, meni terim unga kovush bo‘lsa deb uydan chiqib qochib ketibdi. Xo‘roz uning orqasidan “quq – quq – qu...”, -deb qichqirib qolibdi. Shunda tulki yana:
Yo‘lbarsday mehmonimiz,
Qildi araz o‘rgilay,
Orqasidan qichqirib,
Qoldi xo‘roz o‘rgilay,-deb ashula qilib qolibdi. Ular hozir ham ashula qilayotgan emish.

Tulkining jazosi¹

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, bir tulki bor ekan. U tulki bir kun angishvona topib olibdi. Angishvonani kampirga olib borib beribdi:

-Ena, bu narsani saqlab qo‘ying, omonat, ertaga olib ketaman,- debdi. Kampir angishvonani olib ko‘rpaning tagiga qo‘yibdi. Buni tulki ko‘rib turgan ekan. Kampirning ko‘zini shamg‘alat qilib angshuvonani o‘g‘irlab ketibdi. Ertasi kuni kelib:

-Kechagi omonatga keldim,- debdi. Kampir angishvonani olib beray deb qarasa, joyida yo‘q emish. Axtarib hech qayerdan topolmagach, angishvona o‘rniga ikkita chevati beribdi. Tulki chevatinini olib, bitta angishvonam ikkita chevati bo‘ldi, deb ketaveribdi. Bitta chevatinini yeb, ikkinchisini bir ayolga olib



¹ Namangan xalq og‘zaki badiiy ijodi. /To‘plovchi va nashrga tayyorlovchilar: G‘oziboyev T., Sobirov. A., / Namangan, 1993, B-38.

boribdi. Unga ham chevatini omonatga berib, qo‘ygan joyidan olib yeb qo‘yibdi. Ayol chevatini qarasa, yo‘q emish. Ayol hayron bo‘lib:

-Voy ,sho‘rim qursin, chevatini biror narsaga yedirib qo‘yibman. O‘rniga patir bera qolay,-deb yalinibdi. Tulki ikkita patirni olib, bitta angshuvonam ikkita chevati, bitta chevatim ikkita patir bo‘ldi, deb ketaveribdi. Yo‘lda birini yebdi-da, ikkinchisini shirmoy non yopayotgan qizning oldiga olib boribdi. Qizga ham uni omonat topshirib, berkitgan joyini poylab turibdi. Qiz uyga kirishi bilan patirni olib yeb qo‘yibdi. Ertasiga qizga kelib, patirni so‘rabdi. Qiz qo‘ygan joyiga qarasa, patir yo‘q emish. Noiloj bo‘lganidan patirning o‘rniga ikkita shirmoy non beribdi. Tulki shirmoy nonlarni olib, bitta angshuvonam ikkita chevati, bitta chevati ikkita patir, bitta patir ikkita shirmoy non bo‘ldi,-deb ketaveribdi.

Yo‘lda bitta shirmoy nonni yeb qarasa un chiqarayotgan tegirmonchini ko‘rib qolibdi. Tegirmonchiga shirmoy nonni berib, omonat topshiribdi. Tegirmonchidan ham shirmoyni o‘girlab yeb qo‘yibdi. Ertasiga kelib omonatini so‘rabdi. Tegirmonchi qarasa, shirmoy non yo‘q emish. Tulkivoy topib berasiz deb turib olgach shirmoy non o‘rniga bir qop un beribdi. Tulkivoy unni olib, bitta angshuvonam ikkita chevati, bitta chevati ikkita patir, bitta patir ikkita shirmoy non, ikkita shirmoy non bir qop un bo‘ldi,-deb ketaveribdi. Yo‘lda katta soydagi qimirlab turgan ko‘prikka duch kelibdi. Ko‘prikdan qopdagi uni bilan zo‘rga-zo‘rg‘a o‘ta boshlabdi. Ko‘prikning o‘rtasiga kelganda, yuk og‘irlik qilib ko‘prik sinib ketibdi. Tulki qopdan ajralishni xohlamay mahkam quchoqlab olgan ekan, suvga tushib, cho‘kib ketibdi. Shunday qilib, ayyor tulki o‘z jazosini olibdi.

Non qudrati¹

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, qadim zamonda bir cholning uch o‘g‘li bo‘lgan ekan. Ularning bor boyligi bittagina baytal bo‘lib, u



bolalashi bilan har yili bolasi yo‘qolib qolaverar ekan. Uch aka-uka buning sirini bilish uchun poyloqchilikka turadigan bo‘lishibdi. Ikki katta aka navbatlarida uhlab qolib, toychani kim olganini bilmay qolishibdi. Navbat kenja o‘g‘longa kelibdi. U

qo‘yniga uchta non solib, baytalni poylay boshlabdi. Har safar uyqu ko‘zini eltay deganda qo‘ynidagi nondan olib yerkanda, yana tetiklashib poylashni davom ettirar ekan. Bir payt baytalni to‘lg‘oq tuta boshlabdi. Bola unga ham nondan beribdi. Toycha dunyoga kelishi bilan qattiq bo‘ron turib, bir katta dev paydo bo‘libdi-da, toychani olib ketibdi.

Ertasiga bola toychani topish uchun o‘zi bilan bir xalta non olib yo‘lga chiqibdi. Oxiri devlar makoniga yetib kelib, uch og‘a-ini devlar bilan birma-bir jang qila boshlabdi. Har gal yengilay deganda qo‘ynidagi nondan yegach, uning kuchiga qo‘shilarkan-u devning holi qurib borarkan. Oxiri bola uchala devni yengibdi va toychasi bilan birga devlarning boyligini olib yurtiga qaytibdi. Otasi oldida yuzi yorug‘ bo‘lib, uzoq yashabdi.

Qodir va Jobir²

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, qadim zamonda Qodir va Jobir ismli ikki do‘st bo‘lgan ekan. Qodir juda aqlli, dono, farosatli har bir narsaning qadriga yetadigan bola ekan. Jobir esa boylikka xirs qo‘ygan, bir foyda chiqadigan joyda doimo paydo bo‘lib qoladigan boylikparast bola ekan. Ular bir kun birgalikda safarga chiqishibdi. Yo‘l yurib, mo‘l

¹ O‘qituvchilar gazetasi. 1991-yil 16-may, 56-son.

² “Gulxan” jurnali. 1994-yil 6-yanvar, 1-son.

yurib, issiqda xorib, qornilari ochibdi. Bir daraxt soyasida o'tirib tamaddi qilmoqchi bo'lishibdi. Har ikkalasi to'rvasidagi yegulik – non va ko'zadagi qatiqni o'rtaga qo'yibdilar. Qorinlari ochligidan yeyayotgan nonlari qattiq bo'lsa-da, xuddi hozirgina tandirdan uzilgan obi-nondek tuyilibdi. Lekin shu payt Jobir: -Qani endi behisob boyligim bo'lsa, hamma narsam oltin bo'lsa! Dunyoda eng boy odam bo'lib ketardim,-debdi.

Qodir esa:-Men uchun eng, avvalo, shu aziz non bo'lsa! Undan yaratganning o'zi benasib etmasin. Qornim to'q, o'zim tetik bo'lganimdan keyin ko'zlagan maqsadimga yeta olaman,-debdi.

Ularning suhbatini tepada turgan Haq Xudo eshitib turgan ekan, darhol ikkisining ham istagini bajo keltiribdi. Jobir juda ko'p boylikka ega bo'libdi. Hatto yeb turgan noni ham, oldidagi ko'zacha, ichidagi qatiq, piyolasi-yu, xullas, atrofida bor narsa oltinga aylanib qolibdi.



Qodirning hurjuni esa yumshoq non bilan to'libdi. Ikkisi ham xursand bo'lib, yo'lga tushibdilar. Lekin uzoq yurib, horigach, yana qorinlari

ochibdi. Yana o'tirib ovqatlanmoqchi bo'lishganida, Qodir mazza qilib o'z nonlarini yebdi. Sobir esa oltin-u durlarini g'ajib qorni ochganidan Xudoga nola qilibdi:

-Ey, Xudo! Menga oltin-u durlar kerak emas. Menga non ber. Lekin Alloh bu noshukurning nolalariga quloq osmabdi. U ochlikdan ana shu cho'l-u biyobonda halok bo'libdi.



Bola aziz odobi undan aziz

Bug‘doyvoyning do‘stligi¹

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan. Qadim zamonda uzoq tog‘ning tagida bir boshqoq bug‘doy unib chiqibdi. Avval maysa, so‘ng bo‘liq boshqoq holida oltin rangga kiribdi. Har kuni quyoshga salom berib, kuni bo‘yi quyosh nurlari bilan o‘ynab, kun kechiraveribdi. Lekin Quyoshxon shom payti tog‘ ortiga ketar chog‘ida bolalari - jajji nurlarni ham o‘zi bilan olib ketar, Bug‘doyvoy esa yolg‘iz qolib juda zerikar ekan. Bir kuni u osmonda uchib ketayotgan qushga qarata:

-Qarg‘axon, kel do‘stlashamiz! Ikkovimiz birga bo‘lsak zerikmaymiz,- debdi. Qarg‘axon rozi bo‘libdi. Lekin uning nafsi g‘olib bo‘lib, ertasigayoq bug‘doy boshqoqlarini cho‘qib yeya boshlabdi. Xafa bo‘lgan Bug‘doyvoy Qarg‘axondan dumalab – dumalab qochib ketibdi. Yo‘l yuribdi, yo‘l yursa ham mo‘l yuribdi. Bir kuni keng yaylovda o‘tlab yurgan qo‘yni ko‘rib qolibdi. Shoyad u menga do‘st bo‘lsa, deb o‘ylabdi u va yuvvoshgina o‘tlab yurgan qo‘yning oldiga borib:

- Qo‘yvoy, kel men bilan do‘stlash. Men senga qadrdon do‘st bo‘laman. Agar meni yerga tiqib, mehr bersang, vaqti kelib senga ozuqa bo‘laman,- debdi. Qo‘y bunga rozi bo‘libdi. Bug‘doyvoyni yerga ekib, uni parvarishlay boshlabdi. Bug‘doyvoy yerdan unib chiqib, ko‘m – ko‘k maysaga aylanibdi. Shunda qo‘yning ishtahasi ochilib, maysalarni yeya boshlabdi. Xafa bo‘lgan Bug‘doyvoy qo‘ydan ham qochib ketibdi. Qo‘y esa og‘zini ochganicha qolaveribdi. Bug‘doyvoy yana yo‘l yuribdi, yo‘l yursa ham mo‘l yuribdi. Keng dalada ishlayotgan odamni ko‘rib qolibdi. Bug‘doyvoy odamning yoniga borib:

- Ey yuzida oftob aksi bor O‘g‘lon, men juda ko‘p do‘stlashdim. Lekin birorta ham haqiqiy do‘stni topolmadim. Sen menda chin do‘st bo‘la olasanmi?-debdi.

- Ha, albatta. Sening qadrdoning bo‘lishga roziman,- debdi inson.

- Unda meni yerga ek, menga mehr ber, men senga eng shirin ne‘mat bo‘la olaman,- debdi Bug‘doyvoy. Inson uni yerga ekib, suv berib, parvarishlay boshlabdi. Yerdan unib chiqib, ko‘m – ko‘k maysaga aylangan Bug‘doyvoy quyosh taftidan bahra olib olib, son – sanoqsiz oltin boshqoqlar tugibdi. Yetilib donlari bo‘liq bo‘lganda:

- Ey O‘g‘lon, endi meni yig‘ib ol. Men senga bir umrlik qadrdon hamrohingman,- debdi. Inson Bug‘doyvoyni boshqoq bolalari bilan

¹ Yangiqo‘rg‘on tumani Nurafshon qishlog‘ida yashovchi 91 yoshli Chinnixon ona Tojimirzayevadan yozib olindi.

birga o‘rib olib, un holiga keltiribdi. Bug‘doyvoyning sodiqligi uchun unga dasturxonining eng to‘ridan joy beribdi.

Shunday qilib Bug‘doyvoy o‘z do‘stini va o‘z o‘rnini topib, murod maqsadiga yetibdi.

O‘qilon va non¹

Qadim zamonda allaqachon bir shahar novvoylari o‘z hunarlari bilan dong taratgan ekanlar. Nonni hech kim ularchalik laziz va ko‘rkam yopo olmas ekan. Shuning uchun ular yashaydigan joy “Sehrli novvoylar mahallasi” deb atalarkan. Biror kimsa safarga chiqsa, “Yo‘lda hamrohim, havf-u xatarlardan saqlanishda madadkorim bo‘ladi”, deb o‘zi bilan non olib ketarkan. Kunlardan bir kuni Qosim ismli yigit ham qo‘yniga non solib yo‘lga chiqibdi. Yo‘l yirtqich hayvon va qaroqchilardan holi emas ekan. Eng dahshatlisi tog‘ o‘ngirida yovuz o‘qilon yashar ekan. O‘qilon kuchli dumi bilan urib, quloch yetmas chinorni ham tag-tomiri bilan ag‘darib tashlar ekan. Xullas, yaqinidan o‘tgan kimsani omon qo‘ymas ekan. Ilon shu kuni o‘lja topolmay qahrga mingan vaqtida so‘qmoq yo‘ldan kelayotgan Qosimni ko‘rib qolibdi. Xarsangtosh ortiga o‘tib pisibdi, yigit yaqin kelishi bilan to‘satdan sapchib, uning ko‘ksiga zarb uribdi. Lekin kutilmagan hodisa yuz beribdi. Olamni olov bo‘roni qoplaganday, tog‘lar dahshat bilan qulaganday bo‘libdi. Og‘riq alamiga chiday olmagan ilon arang ko‘z ochib, o‘zini yerda chilparchin yotganini ko‘ribdi. Uning zaharli tishlari tutday to‘kilib ketgan emish. Yigit esa qarshisida omon-sog‘ turgan emish. O‘qilon alam bilan qichqiribdi:

-Viiish, bu qanaqasi bo‘ldi? Bir zarb bilan quloch yetmas chinorlarni ag‘darib tashlar edim, uydan katta toshlarni teshib o‘tish menga pisand emasdi! Endi kelib-kelib sendan yengilib o‘tiribmanmi? Sen sababli tishimdan ayrildim. Bunda bir sir bor. Ayt kimsan o‘zing, devmisan?

Shunda yigit qo‘ynidan quyoshsifat porlagan go‘zal nonni olib ko‘rsatibdi:

Barcha gap mana shu nonda. Bunga sehrimiz-dehqonlar, novvoylar mehnati singgan. Quyosh tafti, ona yurtimiz qudrati, mehri singan. Ko‘ksimga qalqon bo‘lgan bu aziz tilsimga tishing o‘tarmidi?! Yo‘limni to‘sma, yovuz!

O‘qilon sudralib jo‘nab qolibdi. O‘shandan buyon kishilar ko‘ziga qayta ko‘rinmabdi. Yigit esa yo‘lida davom etibdi. Olis shahardagi

¹ “Gulxan” jurnali. 1994-yil 6-yanvar, 1-son.

qadrdon do'stlari, birodarlari bilan omon-eson diydor ko'rishibdi. Yurtiga qaytganida qadrdon nonini o'pib, e'zozlab, safaridan xotira sifatida uy to'riga ilib qo'yibdi.

Ahil aka-ukalar¹

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, qadim zamonda bir aka-uka yashar ekan. Ular kunlarning birida bug'doy ekishibdi. Bug'doy don holiga kelguncha bo'lgan barcha ishlarni bu ikkalasi birga bajaribdi. Ular yoshligida halol tarbiyalangan ekanlar. Hech bir ishni bir-biriga sansolar qilishmabdi. Nihoyat, bug'doy pishgach, hosilni teng ikkiga bo'lib olshibdi. Tunda aka: "Kel, ukamga shu bug'doyni yarmini beray. U hali yosh qiynalib qolmasin. O'ziga bersam baribir olmaydi. Shuning uchun hozir olib borib bildirmasdan xirmoniga to'kib kelay",-deb, solingan bug'doyni ukasining xirmoniga tashlab ketdi. Xuddi shu payt ukaning ham uyqusi o'chib, akamning oilasi katta, bola-chaqali. O'ziga olgan ulushi qishlashga yetmasligi mumkin. Men esa ulushimning yarmini unga berishim kerak. O'zim olib borib tashlab ketganim yaxshi.

Agar o'ziga bersam baribir olmaydi,-deb, u ham akasining bug'doyiga qopdagi bug'doylarini to'kib ketibdi. Ertalab o'z hirmonlaridagi bug'doyni ko'rib bir-biridan quvonib ketishibdi. Shunday qilib ikki aka-uka murod maqsadlariga yetishibdi.

Non aziz²

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, o'tgan zamonda bir kishi olis yurtlarni ko'rish ishtiyoqida sayohatga chiqibdi. Yo'l yuribdi, yo'l yursa ham mo'l yuribdi, oxiri cho'l-u sahroga borib qolibdi. Quyosh qizdirib nihoyatda chanqab, yurishga madori qolmabdi. Biron salqin joy topib, dam olmoqchi bo'libdi. Ko'zi ro'paradagi bir eski chordevorga tushibdi. Harqalay soyalaydigan joy bordir degan umidda chordevor ichiga kiribdi.



¹ "Xalq so'zi" gazetasi. 2000-yil 17-oktabr, 45-son.

² "Namangan haqiqati" gazetasi. 2011-yil 5-yanvar. 1-son.

Uyning o'rtasida o'lib yotgan ayolga ko'zi tushib, uni vahima bosibdi. Orqasiga qaytmoqchi bo'lganida ana shu ayolga zahar slogan ilonning vishillaganini eshitib, battar qo'rqib ketibdi. Bunday qarasa, onasining o'limi va ilonning vajohatidan qo'rqib yuzlaridan qon qochgan bola tokchada turib dag'-dag' titrayotganmish. Boyagi kishi o'zini qo'lga olib, ilonga qarshi hujumga o'tibdi. Bir amallab ilonni o'ldiribdi-da, bolani tokchadan olmoqchi bo'lib harchand harakat qilsa ham qo'li yetmabdi. Shunda yon atrofga qarab, bir burchakda dastalab qo'yilgan nonga ko'zi tushibdi. Ikkinchi bir burchakda esa har xil kitoblar turganmish. Haligi kishi nima qilarini bilmay hayron bo'libdi. Kitoblarni oyog'i tagiga qo'yay desa, yoshligidan kitob muqaddasligi haqida qulog'iga quyishgan. Nonning ustiga chiqay desa, iymoni ham, vijdoni ham yo'l bermaydi. Indamay o'tiraveray desa, bola bechora tokchadan ag'anab tushib halok bo'lishi turgan gap. "Mayli, nima bo'lsa ham shu norasidani o'limdan saqlab qolay".-debdi-da, kitoblarni ustiga chiqib bolani avaylab pastga olibdi. Hamon qo'rquvdan qaltirayotgan bola majolsiz qo'llarini non tomon cho'zibdi. Shundagina yo'lovchi o'zinig ham och qolganini his qilib, nondan birini olib, avval o'pib, ko'ziga surtibdi. Keyin bir burda sindirib bolaga uzatibdi. Nonni ko'rgach, bolaning yuziga qizillik yugurib, titrog'i bosilibdi. Yo'lovchi ham o'zini bardam seza boshlabdi. Onani dafn qilgach, bolani olib yo'lida davom etibdi. Va o'sha bolani o'z farzandidek voyaga yetkazib, murod- maqsadiga yetibdi.

Yalmog'iz kampir va non¹

Bir bor ekan, bir yo'q ekan Ruxsora ismli qiz bor ekan. U doim dasturxon ustida qornim to'q deb, yurgan yo'lida non yer ekan. O'zi asli o'sha kuni yalmog'iz kampir Ruxsoralarnikiga kirmoqchi emas ekan. Yo'lda eshitgan bitta gapni uning katta-katta quloqlari orqali miyasiga o'rnashib olibdi-yu, kampirga tinchlik bermabdi. U qizcha bilan, albatta, uchrashishga ahd qilibdi. Yalmog'iz ikki tavaqali qizil eshikni ustma-ust taqillatibdi. Uydan ovoz bo'lmagach, uzi allaqanday xunuk tovushda:

– Rr r ... ux...ssora,-deb chaqiribdi. Nafasi shunday kuchli ekanki, eshik ochilib ketibdi, derazalar zirillabdi. Ruxsoraning otasi Shokirali yugurib hovliga chiqibdi. Qarasa eshikda ko'zlari ola-kula bo'lib yalmog'iz kampir turganmish. Shokirali ilgari bu kampir haqida eshitgan, keyinchalik bir-ikki ko'rgan bo'lgani uchun uni tanibdi.

¹ Matbuot manbasi.

Yalmog‘iz kampirning hali umrida birovga yaxshilik qilganini bilmasa ham, har holda eshigiga kelgani uchun yumshoq gapiribdi.

– Keling, momo, xizimatingizda bo‘laylik, suhbatingizni tinglaylik,-debdi Shokirali.

– Meni bu yerga qahr-g‘azab boshlab keldi,-debdi yalmog‘iz,- o‘zimni tutib turolmayapman.

– Ranjishingiz sababini bilsak bo‘ladimi?-so‘rabdi Shokirali.

– Bo‘ladi, bo‘ladi,-dag‘al javob beribdi yalmog‘iz.

– Unda marhamat qilib uyga kiring, bir piyola choy ustida gaplashaylik.

Yalmog‘iz ro‘parasida turgan odam o‘ta shirinso‘z ekanligini sezib taklifga e‘tiroz bildirmapti. Uyga birga kirishibdi. Bu paytda Ruxsora onasi bilan turshak sara- lashayotgan ekan. Ular yalmog‘izni ko‘rib o‘zgarib ketishibdi. Buni sezgan Shokirali:

– Mehmon otangdan ulug‘,-deganlar.- Bugun kampir bizning mehmonimiz,-debdi.

– Yo‘q, meni mehmon bo‘lishga vaqtim yo‘q, buning ustiga ertalab bir qo‘zichoqni yamlaganman. Qornim to‘q. Qizimnikiga ketayotgan edim. Ruxsora haqida yomon gap eshitib qoldim. Shundan sizlarni ogoh etay deb keldim,-javob beribdi kampir.



– Qni, qani eshitaylikchi,-xavotirlanib kampirga qarashibdi Shokirali bilan xotini. Ruxsora esa nima gunoh qilganini eslay olmay qo‘rqib turibdi.

– Kelayotsam yo‘lda bir to‘da bolalar o‘ynashyapti. Ular mendan qattiq cho‘chishdimi, tezda g‘oyib bo‘la boshladilar. Bunday qaragam bir burda non tuproqqa qorishib yotibdi. “To‘xtanglar, men bolalarni yemayman, mendan qo‘rqmanglar, mana bu nonni kim tuproqqa tashladi!”, deb qichqirdim. Shunda malla sochli bola: “Ruxsora, anavi qizil eshikli uyda turadigan Ruxsora tashladi. Biz ol, desak ham olmadim”,- dedi-yu, uyiga kirib ketdi.

Nonni xor qilgan qizcha kim ekan, u bilan bir gaplashib qo‘yay deb kelgan edim,-deya so‘zini tugatibdi yalmog‘iz kampir.

Keyin qo‘lidagi nonni Ruxsoraga ko‘rsatib “Shu senikimi?- debdi.

Ruxsora qip-qizarib
“ha“, -debdi.

Ularning oralariga
birpas jimlik cho‘kibdi.
Kampir goh Shokiraliga, goh
uning umr yo‘ldoshiga
termulibdi. Kampirning bu
qarashini ikkovlari ham
tushunishibdi.



– Bu borada qizimizga ko‘p gapirganmiz, hatto bir burda u yoqda tursin, nonning uvog‘ini ham xor qilmaslik kerakligini qayta-qayta tushuntirganmiz, -deyishibdi ular.

Ruxsora battar uyali, boshini eggancha, piqillab yig‘lay boshlabdi.

– Yig‘lama, -debdi yalmog‘iz kampir, -mana meni hamma yomon ko‘radi. Ayyor, aldoqchi, xunuk, mug‘ombir, hiylagar, zolim deb hech kim mensimaydi. Bolalar qo‘rqib qochishadi. Balki shundaydirman. Bularni tan olaman. Ammo nonni xor qilganlarni ko‘rganda chidolmayman. Ularga nafratim yog‘iladi.

Yalmog‘iz bir burda nonni uch marta o‘pib peshonasiga bosibdi.

– Kechiring, boshqa hech qachon bunday qilmayman, -yig‘i aralash va‘da beribdi Ruxsora.

– Biz ham so‘z beramiz, - deyishibdi uning ota-onalari. Yalmog‘iz bu gaplarga ishonib uydan chiqibdi.

Ana shundan buyon Ruxsora non yesa, uvog‘ini to‘kmaydigan, yo‘lda burda ko‘rsa, chetga, toza joyga olib qo‘yadigan bo‘libdi. U o‘rtoqlariga ham nonni qadrlashni o‘rgatibdi.

Non va tilla¹

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, O‘ktam degan bir kambag‘al dehqon bor ekan. Bir parcha non topsam, deb erta-yu kech ishlar ekan, bo‘sh qolsa qani endi davlat topib olsam-u, boyib ketsam, deb xayol surar ekan.

¹ www.ertak.uz Ertaklar. O‘zbek xalq ertaklari.

Kunlardan bir kun O'ktam, daraxt tagiga o'tirib: "Oллоh menga bir kuch bersa-yu, qo'limni nimaga ursam, o'sha narsa tillaga aylanib qolaversa, ana o'shanda og'ir mehnatdan qutulib, farovon hayot kechirgan bo'lar edim",— deya xayol sura boshlabdi. To'satdan uning qulog'iga:

– O'ktam! Hozir sen tilagingga yetasan! Qo'lingni biron narsaga tekkizgin, darhol tillaga aylanib qoladi,- degan ovoz eshitilibdi.

O'ktam o'z quloqlariga ishonmabdi. Shunday bo'lsa ham, bir toshga qo'l tekkizgan ekan, tosh tillaga aylanib qolibdi. O'ktam o'zida yo'q xursand bo'lib ketibdi. "Endi yer sotib olaman, dang'illama uy quraman, atrofini bog'-rog' qilaman. Chiroyli ot va yaxshi kiyimboshlar sotib olaman", – deb o'ylabdi. U o'rnidan turmoqchi bo'lganida, qattiq charchagani va qorni ochiqqanidan yurishga darmoni yo'qligini sezibdi.

"Ertalab uydan olib kelgan ovqatlarimni yeb olay", – deb daraxt oldiga qo'ygan to'rvachasiga qo'lini cho'zibdi. O'ktam nonni tishlab ko'rsa, qattiq emish. Non ham tilla bo'lib qolgan ekan. To'rvachada olma ham bor ekan. O'ktam shosha-pisha olmani olsa, u ham tillaga aylanib qolibdi. Buni ko'rgan O'ktam hang-u mang bo'lib qolibdi.

O'ktam qo'rqib ketibdi. Endi qanday qilib yeb-ichadi? Bu tillalar bilan qanday qilib yashaydi? Bu ahvolda ochlik va tashnalikda o'lib ketadiku!

Nimaga qo'lini tekkizsa, tillaga aylanib qolayotganini, azoblanib, ochlik va tashnalikda o'lib ketishini ko'z oldiga keltirgan O'ktam shularni xayolidan o'tkazibdi.

Shu payt u ko'zlarini ochib, daraxt soyasida o'tirganini ko'ribdida, xomxayol qilganini anglabdi. Buni tush ekanligini bilgach, yelkasidan tog' ag'darilganday bo'libdi.

– Xudoga ming qatla shukur-a, bularning bari yomon tush ekan! – debdi u.

Non qanaqa rangda?¹

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, bir g‘allakor bo‘lgan ekan. Bir kuni uning o‘g‘li mustaqil yashashni xohlab qoldi, ya‘ni o‘z nonini o‘zi topmoqchi bo‘ldi.

– Sizning izingizdan bormayman,-dedi u otasiga. – Hayot menga boshqa yo‘lni hozirlab turibdi.

– O‘zing bilasan, o‘g‘lim. Seni majbur qilolmayman,-dedi otasi xafa bo‘lib. Nima ham deydi, yolg‘iz farzandi otasining qo‘lidan ishni olishni xohlamasa. O‘g‘il rassom bo‘lishga bel bog‘ladi.

“Chizgisi kelsa, chizaversin. Balki mehnat qilayotgan odamlarning rasmini chizib, ko‘rib-o‘rganib o‘zining aqli kirib qolar...”, - deb o‘yladi. Lekin o‘g‘li ba‘zan shunaqa narsalarni chizar ediki, nimaligini o‘zi ham tushunmasdi. “Mayli endi,-deb bunga ham ko‘ndi ota. – Chizadi, chizadi, oxiri joniga tegadi. Hali yosh, aqli kirib qolar, o‘yinqaroqligini tashlar...”

O‘g‘il xuddi jo‘rttaga qilganday, shunaqa rasmlarni chizaverdi. Shu chizmakashlikni deb uyqudan ham qoldi, ovqat ham yemay qo‘ydi. Oriqlab ketdi, ranglari ham olinib, zo‘rg‘a yuradigan bo‘ldi,-o‘g‘ilga qarab otasining rahmi kelardi.

O‘g‘il haqiqiy rassom bo‘lish uchun rassomlar maktabiga o‘qishga kirdi. Bir kuni o‘g‘ilga uy vazifasi qilib nonning rasmini chizish topshirildi. Bolasi tushmagur ko‘p urindi, chizdi, o‘chirdi, bo‘yadi. Boshqatdan bo‘yoq surib ko‘rdi, goh u buyoqni tanladi, goh bu buyoqni, rasmning bir u yonidan qarab ko‘rdi, bir bu yonidan –yo‘q, nonning rasmi sira o‘xshamas edi. Eplolmaganidan keyin rasmning tagiga “Kuyib ketgan non” deb imzo chekib qo‘ya qoldi.

O‘g‘lining qiynalishlariga zimdan razm solib turgan ota chiday olmay:

– Agar qanday qiyinchiliklar bilan yetishtirilishini bilganingda edi, nonni bunaqa xo‘rlamasding,-dedi.

– Xo‘rlayotganim yo‘q-ku! Chizolmayapman-da! Sizga oson, hamma ishingizga mashina yordam beradi. Yetishtiraverasiz. Nonning

¹ ”Gulxan” jurnali. 1989-yil 13-noyabr. 34-son.

rasmini chizish esa bundan yuz karra qiyin-bo‘yoq tanlashning o‘zi qancha vaqtni oladi. Mana, siz bir umr bug‘doy ekasiz. qani, ayting-chi, non qanaqa rangda bo‘ladi?

Ota dastlab dovdirab qolganday bo‘ldi, balki javob topolmagandir, yana kim biladi, deysiz...

– Nonning rangi qanaqaligini bilmoqchimisan?-dedi mug‘ombirona kulimsirab. – Ertaga men bilan dalaga yur, o‘sha yerda ko‘rasan.

Ular tong saharda dalaga kelishdi, guldirab turgan traktorga o‘tirib, kun bo‘yi shudgor qilishdi, yurganlari sari orqalaridagi yer-shudgor qorayib qolaverdi. Keyin bu ko‘rpaday yumshoq yerga urug‘ sepishdi.



Charchagan-laridan keyin yotib, hordiq oldilar, ko‘z oldilarida esa yer qop-qora bo‘lib chayqalaverdi – xuddi dengiz to‘lqinlanayotganday. Ertalab ota o‘g‘ilni uyg‘otdi-da, ishga boshladi, o‘gil esa qo‘llarini silkiydi, oyoqlarini tipirlatadi:

- Bo‘ldi, boshqa hech narsa kerak emas, endi bilib oldim – nonning rangi qora ekan.

Shunday qilib havaskor o‘g‘il mohir rassomga aylanibdi.



Suv bug'doyga, bug'doy odamga ozuqa

Shabnamli non¹

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, yaqin o‘tgan zamonda Erkinjon ismli bola bo‘lgan ekan. U juda erka, shuning uchun kecha-yu kunduz yotgani yotgan ekan. Onasi unga harchand ish qilishni o‘rgatishga harakat qilsa ham, u quloq solmas ekan. Doim ishtahasi yo‘qligidan nolib, ovqat yeyishga ko‘nmas ekan. Bir kuni otasi unga “O‘g‘lim, hech shabnamli non yeganmisiz?”, -deb so‘rabdi. “Yo‘q, u qanday bo‘ladi?”, -qiziqib so‘rabdi. Shunda ota: “Shabnamli non tonggi shudringdan tayyorlanadi. Kimki yeyishni xohlasa, tongda turib mehnat qilishi kerak. Siz ham erta tongda turib harakat qilsangiz, onangiz sizga ham shabnamli non tayyorlab beradi”, -debdi.

Erkinjon ertasiga tong sahardan otasi bilan tomorqaga chiqib, otasi bilan rosa yer chopibdi. Qorni juda ochqabdi. Dasturxonga kelishsa, onasi tandirdan yangi uzilgan nonni qo‘yib turgan ekan. Erkinjon shosha-pisha non yeyishga kirishibdi. Shabnamli non shunday shirin ekanki, yegan sari ta‘mi og‘zida qolibdi. U onasiga “Onajon, har kuni menga ana shunday shabnamli non yopib bering. Juda ham shirin ekan”, -debdi. Shunda otasi kulib: “O‘g‘lim, Shabnamli nonning hech qanday siri yo‘q. Onangiz bugun ham har kungiday bir xil non yopdilar. Lekin siz bugun mehnat qilganingiz uchun non sizga tatimli va shirin tuyildi”, -debdi. Shundan keyin Erkinjon har kun ota-onasiga qarashib, mehnatkash yigitga aylanibdi va murod -maqsadiga yetibdi.

Nonni bosgan qiz²



Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, qadim-qadim zamonda Suluvxon ismli qiz bo‘lgan ekan. U juda chiroyli, husnda tengsiz ekan. Shuning uchun ham manmansirab hech bir ish qilmas, hech kimni nazari ilmas, doim oynaga qarab o‘zini tomosha qilgani qilgan ekan. Bir kuni onasi issiq non yopib, buvisiga tashlab kelishni iltimos qilibdi.

-Mayli boraman, faqat yangi tufligimni kiyishga ruxsat bersangiz, -debdi qiz.

Onasi ruxsat bergach, yangi tuflisini kiyib yo‘lga chiqibdi. Uni ko‘rgan insonlardan tortib hayvonlargacha mahliyo bo‘lib qolibdi.

¹ www.ertak.uz Ertaklar. Rus xalq ertagi.

² o'sha manba

Suluvxon esa hamma o'ziga havas bilan qarayotganidan mag'rurlanib ketaveribdi. Yo'lda bir ariqqa duch kelibdi. Ariqdan qanday o'tishni bilmay, tuflisini iflos qilmaslik uchun oyog'i tagiga nonni qo'yib suvdan o'ta boshlabdi. Shu payt qattiq girdob bo'lib, uni suvning tagiga olib tushib ketibdi. Suv tagida O'rgimchakxonimning qasri bo'lib, u Suluvxonni o'zining to'riga bog'lab qo'yibdi. Suluvxon qancha yolvormasin, uni qo'yib yubormabdi. Shunda Suluvxon:

-Meni qornim juda ochdi, ovqat bering,-debdi.

-Ana oyog'ing tagidagi nonni olib yeyaver,-debdi O'rgimchakxonim.

-Eh, nima deyapsiz? Men iflos nonni yemayman,-deb dimog'dorlik qilibdi Suluvxon. Bundan O'rgimchakxonimning jahli chiqibdi-yu, qizni qushchaga aylantirib qo'yibdi:

-Sen non qadrini, uni yetishtirganlarning mehnatini bilmading. Endi senga jazo shu, qachonki oyog'ing tagida yotgan nonga yetadigan bug'doy yig'sang, asl holingga qaytasan,-debdi-yu, qizni Yerga olib chiqib qo'yibdi. Qushchaga aylangan qiz chirqillab-chirqillab o'z uyining derazasiga qo'nibdi. Xavotir olgan onasi derazadan qarasa ko'chadagi odamlar nonni bosgan qiz haqida gapirishiyotgan ekan. Bu mening qizim emasmikin, deb yig'labdi. Qizcha qancha onasining yoniga borib chirqillamasin, onasi unga e'tibor qilmabdi. Noiloj qolgan qushcha uyining derazasiga boshoq terib kela boshlabdi. Tun-u kun, yong'ir-u jalalarda qiynalib oxiri nonga yetarli boshoq to'plabdi. Onasi esa qizidan darak bo'lavermagach ko'chalardan qidiraveribdi. Oxirgi boshoqni terib kelgandan so'ng qizcha o'z holiga qaytibdi. Onasining bag'riga yig'lagan otilibdi. Shundan so'ng u hammaga yordam beradigan, har bir narsaning qadriga yetadigan, nonni e'zozlaydigan oqila qizga aylanibdi.



Frazeologik birliklar

Noni butun.

Noni yarimta.

Kesak ustida non.¹ (O‘zbekcha)

Matosi – tikilmagan, noni – kulchasiz. (Turkmancha)

Xorlikning achichiq nonini yemoq.

Uning noniga ikki tarafidan sariyog‘ surilgan.

Non so‘rab, tosh olmoq.

Nonni suvga oqizmoq. (Inglizcha)

Olqishlar²

Omin, qo‘shlaring qo‘shoq bo‘lsin, ekkanlaring boshoq bo‘lsin, oldilaringda hamisha tovoq bo‘lsin, uylarga qut-baraka kirsin, Bobodehqon madad bersin, Allohi akbar.

* * *

Omin, Xizr barokot bersin, uyimiz donga to‘lsin, dasturxon nonga to‘lsin, to‘kin – sochinlik bo‘lsin, xonadon nurga to‘lsin, Allohi akbar.

* * *

Omin, olgani oltin, noni butun, ro‘zg‘ori to‘kin bo‘lsin. Do‘stga zor, dushmanga xor qilmasin, Allohi akbar.

Qarg‘ishlar³

Non urgur.

Non ko‘r qilgur.

Nonga zor bo‘lgur. Non deb kesak tishlagur.

Qorning aslo nonga to‘ymagur.

Nontepki.

Nonko‘r.

¹ Chust tumani aholisi orasida qo‘llanadi.

² T. Mirziyayev, O. Safarov, D. O‘royeva. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi xrestomatiyasi. – T.: Aloqachi. 2008.

³ O‘sha manba.

Kinna¹

Ko‘zlaganning ko‘ziga bor,
So‘zlaganning so‘ziga bor.
Qon yalagan qassobga bor,
Gard yalasang tegirmonga bor.
Un yalagan alafga bor,
Qorni katta boylarga bor.
Ha, chiq, badbaxt, chiq,
Chiqmaganingga qo‘ymayman.



O‘yinlar² Non yopish

Bunda bolalar 2-3-4 ta bo'lib o'ynaganlar. Yozda ariqlarning ichidan yoki sug'orilgan yerning chetidan loy olganlar. Loydan zuvalachalar yasab ularni bir joyga terib qo'yganlar. So'ngra devorga aylana chizganlar, bu "tandir" hisoblangan. Qizdirilgan tandirga suv sepganday devordagi "tandir"ga ham suv sepganlar. Keyin "pazanda" zuvalalarni qo'li bilan bosib yozgan, cho'p yoki tovuq pati bilan cho'qilab, "kulcha" yasab, navbat bilan "tandir"ga yopaverib, shunday deganlar:

To'lqinjonning to'yi bu,
Biz taxladik moy kulcha.

Moy kulchaki, xuddi bol,
Xohlaganing saylab ol!

Yoki:

Ruxsor tug'ilgan kuni
Biz pishirdik moy kulcha.
Moy kulchanning moyi bor,
Xohlaganing tanlab ol!

So'ngra kulchalar devorda ancha vaqt turgach, ularni uzib olib, oftobga yozib qo'yganlar. Quriganlarini terib olganlar. Keyin "Kim chiroyli non yopibdi?",-deb bir-birlarining kulchalarini solishtirib ko'rganlar.

¹ T. Mirziyayev, O. Safarov, D. O'royeva. O'zbek xalq og'zaki ijodi xrestomatiyasi. – T.: Aloqachi. 2008.

² O'sha manba.

Yana bolalar loydan har xil narsalar: choynak, piyola, taqsimcha (tarelka), hayvonlarning shaklini ham yasaganlar.

"Uchamak" talabi

Bu o'yinda soqqa osmonga irg'itilib yerga tushgunigacha zaxirada turgan ikki tosh tezlik bilan qoldan-qo'lga o'tkazib olinmog'i, ayni chog'da har biri navbatma- navbat soqqa sifatida osmonga irg'itilaverib o'ziga xos aylana-doira hosil qilinmog'i darkor. Bu jarayon esa quyidagi aytim bilan boshqarilishi lozim:

Uchamak-bitta,
Uchamak-ikkita,
Uchamak-uchta,
Uchamak-to'rtta.
Uchta-puchta-puch,
Soqqacham tezroq uch!

Ana shu olti shart ijrosidan so'ng uch tosh navbatma-navbat osmonga irg'itila turilib, lapar aytib raqsga tushish boshlanadi. Har bir tosh irg'itilganda laparning bir satri kuylangan: Makkaxonning po'pagi, Tandirimning kesagi.

Tegirmonning kepagi,
Kurmak nonning chalpagi.

So'ngra navbatma-navbat "Non yopganda mening oyim", "Oftob chiqdi olamga", "Non pishdi-yo, non pishdi" qo'shiqlari kuylangan:

Non yopganda-non yopganda,
Mening oyim, mening oyim.
Issiq kulcha, issiq kulcha yopar
doim.

Nihoyat yakunlovchi sifatida "Karraxarra" lapari ijro etilgan. O'yinchi qiz shartlarni bexato bajara borib, laparlar ijrosi jarayonida dugonasiga ba'zi-ba'zida hazil aralash qochirimlar, jumboqli pichinglar, kinoya va kesatiqlar qilib tursa-da, buni u kulib-yayrab qabul qilgan, og'ir olmagan. Mag'lub tomon g'olib tomonning boshqa



talablarini, chunonchi, ma'lum masofaga zuvillab yugurish, hakkalab chopish, raqsga tushish yo ashula kuylab berish, bir oyoqda belgilangan vaqtgacha tikka turish va boshqa shartlarini bajarmog'i shart sanalgan.

Non bilan bog'liq urf –odatlar¹

Juda qadim-qadimdan davom etib kelgan, zamon-u zaminlar, avlod-u ajdodlar uchun ham namuna bo'ladigan tabiatning bebaho ehsoni, inson kashfiyotlari ichida eng buyugi bo'lmish non bilan bog'liq. Xalq udumlari, urf-odatlar, qadriyatlar va ma'naviy tarbiya manbai bo'lganligi haqidagi fikrlar:



1. “Nuridiydam- bolamga ins-jins ziyon-zahmat yetkazmasin”, deb onalar o'z go'daklari yostig'i ostiga non qo'yganlar.

2. Otalar o'g'lini o'zga yurtga safarga otlantirayotib, oq yo'l tilab, fotiha berar ekanlar, “balo-qazodan saqlaydi”, degan ma'noda farzandlarining qo'lga bir siqim ona-yer tuprog'i bilan non tutqazganlar.

3. Chavandozlar uloq-ko'pkari boshlanishi oldidan “Belimga madadkor bo'lsin, iymonimni butun qilsin”, deb bellariga butun non tugib olganlar.

4. Ovchilar ovga borganda vahshiy hayvon botinib hujum qilmasin, degan maqsadda qo'ynilarida non saqlaganlar.

5. Yo'lga chiqqan yoxud yog'iyga otlangan bahodirga ota-onalari yoki suyukli yorlari non tishlatib qolganlar, maqsadki, Vataniga sihat-salomat, beshikast qaytsinlar.

6. Xasta bemorni ko'rish, hol-ahvol so'rash, birinchi navbatda, tandiriy non bilan bo'lgan.

7. Keksalar - xoh ayol bo'lsin, xoh erkak - ziyoratlari yangi yopilgan non bilan boshlangan.

8. Mehmon oldiga eng avval non qo'yilgan.

¹ Hoshimov O'. Daftar hoshiyasidagi bitiklar. Toshkent: Zukko kitobxon, 2021. –B-11.

9. “Noni borni o'q-yoy olmas”, degan aqidaga amal qilgan holda suvoriylar qo'yniga kamon, o'q bilan birga non qo'yilgan.

10. Mirob boshiga non qo'yib, suv poylagan.

11. Homilador ayolning ko'z yorishi mushkullashib, chaqaloqning tug'ilishi qiyinlashsa, non hidlatilgan.

12. Kelin-kuyovlar non bilan kuzatilgan.

13. Dehqon non yetishtirish nashidasi bilan band ekan, u bilan non hamroh bo'lgan.

Xullasi kalom, sayyoh safarda, dehqon dalaga qo'sh chiqarganda, cho'pon otarga jo'naganda, bog'bon navro'zi ayyom kelishi bilanoq bog' parvarishiga kirishganida, cho'lquvar cho'lga otlanganida, olim muammolar ustida bosh qotirib tunni tongga ulaganida, farzand maktabga borganida aziz non unga hamroh-u hamdo'st bo'lgan.

NON – DAVO¹

Milklar qochib, tishlar bo'shasha boshlasa, ota-bobolarimiz qotgan nonni chaynatishgan.

- Yara fasodlana boshlasa, tabiblar qotgan non bilan birga qo'y yog'idan olingan jizzani yanchib qo'yganlar. Fasod ketib, bemor tuzalib ketgan.

- Qadimgi tabobatga ko'ra, sariq kasaliga duchor bo'lganlarga anor sharbatiga botirilgan qattiq non edirganlar. Biron-bir yoqmagan yoxud achigan ovqatni yeb qo'yib, ich buzilsa (ich ketsa, yurakburug'ga chalinsa), kunda uch mahal qotgan non yeb, orqasidan qatiq ichilsa, bemor tuzalib ketadi.

- Qattiq shamollab, grippga duchor bo'lgan kishi piyoz to'g'rab, qalampir sepib qatiqqa nonni botirib yesa, g'ar-g'ar terlab, o'ranib yotib, bir uxlab tursa, tetiklanib, o'rnidan turib ketadi.

- Navro'z arafasi va Navro'zi olam kunlarida “Ilik uzildi” davri ham boshlanadi. Bunda kuch-quvvat dov-daraxtlarga, g'iyohlarga o'tadi, deyishadi. Mana shunday paytda nonni sumalakka tekkizib yeyish yoki yalpiz, sho'ra, beda, otquloq, chumchuq tili, jag'-jag', chumchuq ko'z,

¹ Xalq urf-odat va an'analari.; Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma. – T.: “Ijod dunyosi”, 2003. B-105.

ermak, machin, mator, ismaloq, kovrak, rayhon, ko'kpiyoz, kashnich, tok bargi, ukrop, jambil, shovul kabi tabobat mo'jizalari - gilyohlardan terib, yaxshilab yuvib, tozalab, chopib, yog'da qovurish, so'ng xamirturushli xamirga qorishtirib non yopib iste'mol etish yoki ko'k osh, ko'k somsa, ko'k tok oshi qilib yeyish kerak. Bunda ko'kpatir alohida ahamiyatga ega. Bug'doy, makkajo'xorini yanchib, taomlar tayyorlangan.

-Qon bosimi oshganda, asablar iztirobga tushganda xamirturushni iliq suvda eritib ichish davo.

-Non bir yemishgina emas, balki shifo hamdir, davolarning davosi parhezdir. Shuning uchun ham bu bebaho boylik hamma davrlarda e'zozlangan.





Go‘jamdagi shirinim, kelimdagi bug‘doyim.

SIKLOKROSSVORD

Siklokrossvord javoblarini shaklda belgilangan xonadan boshlab soat mili yo'nalishida yozib chiqing.

1. Oliy navli unga no'xat unidan qo'shib, sut va yog' solib tayyorlangan non

2. Non yasashda ishlatiladigan anjom.

3. Yumaloqlangan xamir donalari.

4. Non tayyorlashda qo'shiladigan qo'y yoki qoramol yog'i eritilganda hosil bo'ladigan masalliq.

5. Non yopiladigan qadimiy o'choq.

6. Novvoychilikda ishlatiladigan, yoziq to'qima idish.

7. Un va suvdan tayyorlangan qorishma.

8. Oshirilmagan xamirdan yupqa qilib yoyib, singitib pishirilgan non.

9. Aziz ne'matni tayyorlovchi kasb egasi.

10. Jo'xori unidan yopilgan non.

11. Non yopish anjomi.


12. Oshirilmagan xamirdan chakichlab tayyorlangan non.

13. Non yuziga sepiladigan xushbo'y o'simlik urug'i.

14. Non tarkibidagi organik modda.

15. Boshqoli g'alla o'simligi.

16. Zuvala tayyorlanadigan supradagi un.




Topishmoqli krossvord

Bo'yiga:

1. Tinmay donni kavshaydi oq un qilib tashlaydi
2. O'zi uyga o'xshaydi, bug'doylarni qurshaydi
3. Birin yerga tiqdim bir xovuch bo'lib chiqdi

Eniga:

1. O'zi qattiq tosh emas, ovqat usiz tatimas
4. Tinmay yurar yurgani bilinmas
5. Bir qo'yim bor, turib semirar
6. Yedirib, yedirib yediganin o'zi yer.
7. Ko'k ko'ylakli xotin sariq bola ko'targan
8. Ho'l otdim quriq chiqdi
9. Qor emas u qorday oq, uyingda bor ko'rib boq.



Siklokrossvorda javobi:


1) shirmon, 2) chakich, 3) zuvala, 4) jizza, 5) tandir, 6) savat 7) xamir, 8) lochira, 9) novvoy, 10) zog'ora, 11) rapida, 12) patir, 13) sedana, 14) oqsil, 15) bug'doy, 16) urvoq.

Topishmoqli krossvord javobi:

Bo'yiga: 1) tegirmon., 2) kombayn, 3) bug'doy.

Eniga: 1) tuz, 4) suv, 5) xamir, 6) yer, 7) makkajo'xori, 8) non, 9) un.





Non daraxti Malayziya o'rmonlarida o'sadi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Alaviya M. O‘zbek xalq marosim qo‘shiqlari. –T.: “Fan”, 1974.
2. Bolalar uchun tez aytishlar [Matn] / To‘plovchi: Avvalboyeva I. / - T.: “Yurist media” markazi. 2019.
3. Bolalar uchun topishmoqlar [Matn] / To‘plovchi: Avvalboyeva I. / - T.: “Yurist media” markazi. 2019.
4. Dunyo xalqlar maqollari. //To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi: Fathullayeva A.// - T.: “O‘zbekiston”, 2018.
5. Dunyo xalqlar maqollari”. // To‘plovchi va nashrga tayyorlovchilar: Raimov A. va Raimova. N. // - T.: “O‘zbekiston”, 2018.
6. Eng qadimgi hikmatlar. [Matn] / Tuzuvchi: A. Rahimov, N. Rahimova / - T.: “O‘zbekiston”, 2018.
7. Fazliddinov B. Nonday aziz bo‘lin. “Ma‘rifat” gazetasi, 2007-yil. 3-oktabr.
8. Galiyev M. O‘zbek bolalar folklari. “Fan”,1998.
9. Gulguna // To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi Ibrohimova Z.// - T: “Yangi nashr”, 2010.
10. “Gulxan” jurnali.
11. “Gulxan” jurnali.
12. Hoshimov O‘. Daftar hoshiyasidagi bitiklar. - T.: “Zukko kitobxon”, 2021. –
13. Ibrohimova Z. Gulguna. - T.: “Yangi nashr”, 2010.
14. Jabborov M. O‘zbek xalq etnografiyasi. –T.: “O‘qituvchi”, 1994.
15. Jalilova H., Shonazarov M. Non rizq-ro‘zimiz. - T.: “O‘qituvchi”, 1988.
16. Jalilova J., Shonazarov R. Nonga hurmat- elga hurmat. – T.: “O‘qituvchi”, 1988.
17. Jo‘rayev M., Narziqulova M. Mif, folklore va adabiyot. – T.: “Milliy kutubxona” 2006.
18. Kanevskiy M. va boshqalar. Turmushda tejamkorlik sirlari. – T.: “O‘qituvchi”, 1988.
19. Madayev O. Navoiy suhbatlari. – T.: “O‘qituvchi”, 2018.
20. Madayev O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. / universitetlar va pedagogika institutlari uchun o‘quv qo‘llanma / -T.: ”MUMTOZ SO‘Z”, 2010.
21. Madayev O. Xalq og‘zaki ijodi. - T.: Sharq, 2010.
22. Mirzayeva M., Musoqulov A. Ostonasi tillodan. –T.: “Fan”, 1992.
23. Mirziyayev T., Safarov O., O‘royeva D. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi xrestomatiyasi. – T.: “Aloqachi”, 2008.

24. Murodov M. Oltin sandiq ochildi. – T.: “O‘qituvchi”, 1994.
25. Murodova M. Folklor va etnografiya. –T.: ”Aloqachi”, 2008.
26. Namangan xalq og‘zaki badiiy ijodi namunalari. /To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi:G‘oziyev T., Sobirov A. / - Namangan, 1993.
27. O‘zbek xalq maqollar. [Matn] / Tuzuvchi va nashrga tayyorlovchi: A. Fathullayeva / - T.: - “O‘zbekiston” NMIU, 2018.
28. O‘zbek xalq maqollari. / Tuzuvchilar: T. Mirzayev, A. Musaqov, B. Sarimsoqov; Mas’ul muharrir: Sh. Turdimov. - .: “Sharq”, 2016.
29. O‘zbek xalq maqollari. // To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi: Imomov K.// - T.: G. Gulom, 1989. – B-105.
30. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi xrestomatiyasi // To‘plovchi va nashrga tayyorlovchilar: Mirziyayev T. ,Safayev O. va O‘rayeva D. // - T.: “Aloqachi”, 2008.
31. Rahmon S. To‘y tabriklari. –T.: “Cho‘lpon”, 1995.
32. Rahmonova M. O‘zbek xalq afsonalarining badiiyati. – T.: “Fan”,2009.
33. Safaraliyev I. Non – iymon. “O‘qituvchi” gazetasi, 1991-yil. 16-may.
34. Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. / universitetlar va pedagogika institutlari uchun darslik / -T.:”Musiqqa”, 2010.
35. Sarimsoqov B. O‘zbek marosim folklori. –T.: “Fan”, 1989.
36. Shirinboyev Sh. “Non”. Toshkent. O‘qituvchi. 1992-y.
37. Shirinboyev Sh. Non. - T: “O‘qituvchi”, 1992.
38. Shoda-shoda marvarid: O‘zbek xalq qo‘shiqlari. / To‘plovchi: E. Ochilov / – T.: “Sharq”, 2006.
39. Shomansurova R. Qizlar kitobi. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2020.
40. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Hikmatnoma. - T.: “O‘qiyuvchi”, 1990.
41. Sulaymonov I. Non deya, non deya. “Xalq so‘zi” gazetasi, 2000-yil. 17-oktabr.
42. Sulaymonov M. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. Namangan, 2012.
43. XX asr o‘zbek folklorshunosligi. Antologiya. [Matn]. Tuzuvchilar: O. To‘laboyev va boshq. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, -2017.
44. Yo‘ldosheva S. Barhayot an’analar. - T.: “Fan”, 1999.
45. Yo‘ldosheva S. Xalq urf-odatlari va an’analari. – T.: “Ijod dunyosi”, 2003.
46. www.ertak.uz

Mundarija

So‘zboshi.....	3
Qo‘shiqlar.....	6
Novvoylar qo‘shig‘i.....	6
Non haqida qo‘shiq	7
G‘allalar aytishuvi	9
Mehnat qo‘shiqlari.....	9
O‘rim qo‘shig‘i.....	9
Yanchiq qo‘shig‘i.....	10
Yorg‘ichoq qo‘shig‘i.....	12
Nokas nonning qadrini bilmas.....	13
Hajviy to‘rtliklar	14
Yumoristik to‘rtliklar.....	16
Zog‘ora	16
Amirning o‘lponchilariga qarshi.....	17
Marosim qo‘shiqlari.....	17
Yor-yor	17
Kelin salom.....	17
Topishmoqlar.....	18
Tez aytishlar.....	21
O‘zbek xalq maqollari.....	23
Dunyo xalqlarining non haqidagi maqollari.....	30
Ayrim non haqidagi maqollar izohi	40
Masal.....	47
Afsonalar.....	48
Non eng yaxshi qalqon.....	48
Nodon ayiq.....	48
Ilon zahrini non daf etar.....	49
Non ramzi.....	49
Gaznon.....	50
Rivoyatlar.....	52
Non isi	52
Non iymon	52

Navoiy va tandir voqeasi.....	53
Amir Temur va kampir	56
Non urib qo‘ymasin.....	57
Non – muqaddas.....	58
Shirmoy non	58
Non ming dardga davo	59
Amirni yenggan non	59
Non – hamroh.....	60
Halol non – rohati jon.....	61
Bug‘doy so‘z –shirin so‘z.....	61
Ulug‘bekning donoligi.....	62
Hazrati non.....	63
Qarz.....	65
Ertaklar.....	65
Ko‘mach.....	65
Hayvonlar va issiq non.....	66
Tulkining jazosi.....	67
Non qudrati.....	69
Qodir va Jobir.....	69
Bug‘doyvoyning do‘stligi.....	72
O‘qilov va non.....	73
Ahil aka-ukalar.....	74
Non aziz.....	74
Yalmog‘iz kampir va non.....	75
Non va tilla.....	77
Non qanaqa rangda?	79
Shabnamli non.....	82
Nonni bosgan qiz.....	82
Frazeologik birliklar.....	84
Olqishlar.....	84
Qarg‘ishlar.....	84
Kinna.....	85
Non bilan bog‘liq o‘yinlar.....	85
Non yopish.....	85

Uchamak talabi.....	86
Non bilan bog‘liq urf-odatlar	87
Non davosi.....	88
Siklokrossvord.....	91
Topishmoqli krossvord.....	92
Krossvord javoblari.....	93
Foydalanilgan adabiyotlar.....	95

Fotima Erkinova

**O‘ZBEK XALQ OG‘ZAKI IJODIDA
NON MADHI**

To‘plam

Muharrir: Sherali Turg‘unov
Musahhih: Nigora Saydahmedova
Texnik muharrir: Qodirjon Bozorov



“Bookmany print” nashriyoti

Nashriyot tasdiqnoma raqami № 022246. 28.02.2022-y.

Bosishga ruxsat etildi: 4.04.2022.

“Times New Roman” garniturasida. Qog‘oz bichimi: 60x84^{1/16}

Nashriyot bosma tabog‘i 5,9. Shartli bosma taboq 5,8.



Adadi 200 nusxa. ofset bosma usulida bosildi.

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy.

“BOOKMANY PRINT” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy.

E-mail: bookmany_print@mail.ru

 [t.me/ Bookmanyprint](https://t.me/Bookmanyprint)  +998 99 180 97 10